

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

_____ S.Abdullayev

“ ____ ” _____ 2018-y

O‘zbek filologiyasi fakulteti filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi
IV kurs 402-guruh talabasi Ozodov Sunnatilloning **“Hozirgi o‘zbek tilida
neologizmlar”** mavzusida yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

_____ f.f.n.T.Tog‘ayev,

O‘zbek tilshunosligi nazariyasi
kafedrasi dotsenti.

Taqrizchi:

_____ f.f.n. N.Mahkamov,

O‘zbek tili, adabiyoti
va folklori instituti Terminologiya
bo‘limi boshlig‘i, f.f.n

“Himoyaga tavsiya etilsin”

O‘zbek tilshunosligi

kafedrasi mudiri: _____ f.f.d. M.Qurbonova

“ ____ ” _____ 2018-y

Toshkent – 2018

MUNDARIJA

Kirish	3-5
I. Neologizm tushunchasi, paydo bo‘lish sabablari	6-8
1.1. Neologizmlar lingvistik tushuncha sifatida.....	8-18
1.2. Neologizmlarning paydo bo‘lish sabablari.....	19-23
II. O‘zbek tilida neologizmlarining qo‘llanishi	24-37
2.1. O‘zbek tilidagi neologizmlarning turlari.....	38-46
III. Neologizmlar atama sifatida	37-38
3.1. Neologizmlar va terminologiya.....	38-46
3.2. Ayrim sohaviy neologizmlar.....	47-55
Xulosa	56-59
Foydalanilgan adabiyotlar	60-61

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi o‘zbek tilshunosligida uning barcha sohalari bo‘yicha, ayniqsa, leksikologiya yuzasidan yirik va jiddiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Shunga qaramasdan, bu sohaning barcha muammolari tugal hal etilgan deb bo‘lmaydi. O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi neologizmlar shu vaqtga qadar to‘liq o‘rganilgan emas. S.I.Ojegovning e‘tirof etishicha, leksika tilning boshqa sathlariga qaraganda murakkab va ko‘p qirralidir. Uning vazifasi, bir tomondan, jamiyat nafas olayotgan borliqni barcha murakkabliklari bilan in‘ikos etish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, leksik, semantik, uslubiy-sinonimik so‘z yasash va shuning kabi bir qator hodisalarning murakkab lisoniy munosabatlarini ifoda etishdan iboratdir. Bir tildan boshqa tilga so‘z o‘zlashishi tillarning aralashuvi sifatida yuqori baholanadi. Mashhur tilshunos L.V.Shcherba bunday jarayonni tilshunoslikning muhim muammolari sirasiga kiritadi¹.

Qozon tilshunoslik maktabining namoyandalaridan biri V.A.Bogoroditskiy o‘z tilini o‘rganishda boshqa tilning ta‘sirini hisobga olish zarurligi va uning ahamiyatini qayd qiladi.

Tillarning o‘zaro ta‘siri, bir tildan boshqa tilga lisoniy birliklarning o‘zlashishi masalalari N.V.Yushmanov tadqiqotlarida ham e‘tiborli o‘rinda bo‘lgan. O‘zbek tilidagi neologizmlarning tadqiqiga bag‘ishlangan an‘anaviy yo‘sindagi ishlar mavjud emas. Lekin o‘zbek tilidagi neologizmlar sistem tadbirlar asosida o‘rganilmagan. Sababi shuki, lug‘aviy materialni sistem o‘rganish fonetika, morfologiya yoki sintaksis materiallarini sistem o‘rganishga qaraganda qiyinroq kechadi².

¹ Suvonova R. So‘z o‘zlashtirish va metonimiya. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. Toshkent. 2006/6. 48-bet.

² Қаранг: Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: 1995. 35-bet.

BMIning obyekti va manbalari. O‘zbek tili leksikasining neologizmlari qatlami tadqiqotning asosiy obyekti sanaladi. Manba sifatida turli gazeta va jurnallar, internet materiallari tanlandi.

BMIning asosiy maqsad va vazifalari. Mazkur BMIning maqsadi hozirgi o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi neologizmlarni ayrim leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishdir. Bunda quyidagi vazifalar hal etiladi:

- *neologizmlarning semantik xususiyatlarini tadqiq etish;*
- *neologizmlarning leksik xususiyatlarini tavsif etish;*
- *neologizmlarning o‘zbek tili lug‘at tarkibiga o‘zlashish omillarini aniqlash.*

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda leksikologiya bo‘limi bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar I.Rasulov, A.Shomahsudov, R.Qo‘ng‘urovlar tomonidan olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik M.Yo‘ldoshevning³ “Badiiy matnning lisoniy tahlili” va S.Karimovning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ko‘rinadiki, leksikologiya sohasida talaygina ishlar amalga oshirilgan. Bu borada ishlarning bevosita davomi sifatida biz o‘z ishimizda neologizmlarning leksik-semantik xususiyatlariga e‘tibor qaratdik.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur BMI materiallaridan qo‘llanma va lug‘atlar yaratishda, oliy o‘quv yurtlari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda maxsus kurs va seminar mashg‘ulotlarida foydalanish mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosi. Dialektika va uning amaldagi qonun-qoidalari sanaladi. Neologizmlarni tavsiflashda sistem-struktur tahlil metodi bilan bir qatorda, ma‘naviy-komponent, nominativ-onomosiologik, funksional-semantik kabi tahlil usullaridan ham foydalanildi.

O‘zbek tilshunosligida professor Sh.U.Rahmatullayev, F.Abdullayev, A.Hojiyev, I.Qo‘chqortoyev, M.Mirtojiyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov,

³M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lisoniy tahlili” Alisher navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashiryoti T.: 2010/112 b

A.Berdialiyev, H.Ne'matov, R.Rasulov kabi olimlar tomonidan qo'llangan yo'l va usullar ishimiz uchun muhim yo'llanma vazifasini o'tadi.

BMIning tuzilishi va hajmi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish, 5 fasilni o'z ichiga olgan uch asosiy bob, xulosa, lug'at hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 61 sahifani tashkil etadi.

I BOB. NEOLOGIZM TUSHUNCHASI, TURLARI, PAYDO BO‘LISH SABABLARI

1.1. Neologizmlar lingvistik tushuncha sifatida

Til – millat ko‘zgidir. Uning o‘zligini, ma’naviy qiyofasini ko‘rsatib beruvchi bebaho boylikdir. Ona tilini muqaddas bilish o‘zini, qadr-qimmatini, g‘ururini anglash, tarixini, milliy qadriyatlarini hurmat qilish demakdir.

Insonning ma’naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma’rifiy rivojida ona tili muhim o‘rin tutadi. Til milliy ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatning ko‘zgidir. Hadisda *“Kishining zebu ziynati, go‘zalligi uning tilidadir”* deyiladi. Har bir xalq, millat o‘z tiliga hurmat bilan qaraydi. Chunki til millatning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. Yurtboshimizning *“Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. O‘z tilini yo‘qotgan millat o‘zligidan judo bo‘lishi muqarrar”*, deb ta’kidlagani bejiz emas. Demak, millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir.

Dunyodagi qay bir xalqni olmaylik, uning jahon siviliziyasidagi o‘rni va mavqei, betakror milliy o‘zligi va tarixiy tajribasi bilan belgilanadi. Milliy o‘zlikning birinchi belgisi bu milliy til bo‘lib, u millatning millat bo‘lib shakllanishida muhim shartlardan biri hisoblanadi. Til bo‘lmasa el ham, millat ham bo‘lmaydi. Elni – el, millatni millat darajasiga ko‘taradigan, uning yashashi va faoliyatini belgilab turadigan vosita til ekan, u bilan butun insoniy qiyofalar shakli shamoyiliga ega bo‘ladi. Xalqning madaniy-ma’naviy boyligi, aql-idroki va tafakkuri, ilmiy, tarixiy-madaniy boyliklari uning tilida o‘z ifodasini topadi. Shu ma’noda, til xalqning qalbi va borlig‘idir. Til xalqning buyuk va bebeho ma’naviy boyligi, bitmas tunganmas xazinasidir.

Til — jamiyat boyligi, u jamiyat a’zolarining o‘zaro aloqasini amalga oshiradi, insonning moddiy va ma’naviy turmushida ro‘y beradigan barcha

voqea va hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi. Til ayni ma'noda asrlar mobaynida shakllanadi va mavjud bo'ladi. Mamlakatimizda ma'naviyat sohasida olib borilayotgan islohotlarda til muammolariga, xususan davlat tili masalalariga alohida e'tibor qilinayotganligi bejiz emas.

Til, ayniqsa uning lug'ati doim o'sish-o'zgarishda. Bunday o'sish-o'zgarish tez va uzil-kesil sodir bo'lmaydi. Shu sababli zamoniyligi jihatidan har xil birliklar yonma-yon yashab turadi. Lug'at boyligida zamoniyligi jihatidan ikki asosiy qatlam mavjud: zamonaviy qatlam va zamondosh qatlam.

Zamonaviy qatlamga bugungi til amaliyotida odatdagi, rasmona deb qaraluvchi leksemalar kiritiladi. Bu qatlamdagi leksemalar na yangilik va na eskilik bo'yog'iga ega bo'lmaydi. Leksemalarning ko'pchiligi xuddi shunday. Zamonaviy qatlamga mansub deb belgilashda leksemaning yakka shaxslar nutqidagi mavqei emas, balki umumtildagi mavqei asosga olinadi.

Leksemani zamonaviy qatlamga kiritishda ularning nutqda ishlatilish miqdori ham asosga olinmaydi. Nutqda ko'p ishlatiladigan leksema odatda zamonaviy qatlamga mansub bo'ladi. Zamonaviy qatlamga, bulardan tashqari, nutqda oz ishlatiladigan leksemalar ham kiritiladi.

Zamonaviy qatlamga kiritiluvchi leksema shu til egalarining barcha a'zolariga tanish bo'lishi ham, barchaning nutqida ishlatilishi ham shart emas. Har bir sohaning terminologiyasi bilan odatda shu sohaning vakili-gina tanish bo'ladi, boshqalarga bu terminlarni bilish zaruriyati ham bo'lmaydi; umumnutqda bunday terminlar ishlatilmaydi ham. Shunga qaramay terminlar zamonaviy qatlamga kiritilaveradi.

Zamonaviy qatlamga kiritiladigan leksema bir asosiy talabga javob berishi kerak: na yangilik va na eskilik bo'yog'i bo'lmasligi lozim. Ko'rinadiki, leksemalarning zamoniyligini aktiv-passiv qatlamlar deb nomlash va tavsiflash to'g'ri bo'lmaydi. Aktiv-passivlik lug'at boyligiga boshqa jihatdan – miqdoriy

jihatdan yondashish bo‘lib, lug‘at boyligini bunday o‘rganish ham, albatta, muhim amaliy va nazariy xulosalarga olib keladi⁴.

Yangilik yoki eskilik bo‘yog‘i bor leksemalar lug‘at boyligining zamondosh qatlamini tashkil qiladi. Bunday qatlam tilning har bir taraqqiyot bosqichida mavjud bo‘ladi, chunki lug‘at boyligi doim o‘sib-o‘zgarib turadi. Shu sababli lug‘at boyligida zamondosh qatlam ham yashaydi.

Zamondosh qatlamda o‘zaro biri ikkinchisining aksi bo‘lgan hodisalar mavjud: yangilik bo‘yog‘i bor leksemalar va eskilik bo‘yog‘i bor leksemalar.

Leksika eng harakatchan, doim rivojlanuvchi komponent hisoblanadi. Jamiyatda yuz berga yangiliklar, rivojlanish va o‘zgarishlar leksikada o‘z ifodasini topadi.

Leksikaning rivojlanishi ikki yo‘nalishda boradi. Bir tomondan, leksika o‘z taraqqiyoti jarayonida jamiyat taqqiyotida yuz bergan tarixiy o‘zgarishlarni, yangiliklarni ifodalash orqali boyiydi. Leksika boshqa tillarda qabul qilingan so‘zlar, yaratilgan yangi so‘zlar, yangicha atamalar, yangicha iboralar so‘zlarning o‘z ma’nolarini o‘zgartirishlari hisobiga boyiydi. Leksikada yuz bergan o‘zgarishlar til sistemasiga bog‘liq bo‘lmaydi. Ikkinchi tomondan, leksika o‘zida mavjud bo‘lgan so‘z vositalar yordamida yangi so‘zlar yasash hisobiga boyiydi.

Yuqorida aytib o‘tilgan jarayon til sistemasi (grammatikasi) bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Til sistemasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan tarzda leksikaga kirib kelgan so‘zlar o‘zlari shakllangan ma’lum bir davrni, jamiyatni qisman ifodalaydi.

Leksikaning rivojlanishi, boyishi quyidagi yo‘llar bilan amalga oshadi:

1. Boshqa tillardan so‘zlar o‘zlashtirish yo‘li bilan;
2. Tilda qo‘llanilib kelgan ayrim so‘zlarning yo‘qolishi;

⁴ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. T.: “Universitet”. 2006. 94-bet.

3. Soʻzlarning oʻz maʼnolarini oʻzgartirishi; bu jarayon quyidagicha amalga oshishi mumkin:

- a) soʻz maʼnosining toʻliq oʻzgarishi;
- b) omonim soʻzlarning paydo boʻlishi;
- d) soʻz maʼnolarning kengayishi;
- e) soʻz maʼnolarining torayishi.

Tillar bir-biridan himoyalangan. Bir til boshqa bir tildan tovushlar, soʻzlar va birikmalarni oʻzlashtirishi mumkin. Oʻzlashtirish, yaʼni oʻzlashtirilayotgan til tomonidan soʻz boyligini yanada oshirish, neologizmlarni yanada mukammal, jarangdor boʻlishiga, yaʼni oʻzlashtirgan tilning qoidalariga tayanib boyitiladi.

Dunyoda boshqa tillardan soʻz olmaydigan bironta ham til yoʻq. *Kurash, yonbosh, chala, halol* soʻzlari dunyoning barcha tillariga kirib borayotgani bizning tilimiz ham turmushimizga kirib kelgan bir qator yangi tushunchalarni ifodalovchi olinma soʻzlar hisobiga boyib bormoqda.

Oʻzbek tili leksikasi turmushimiz uchun keraksiz boʻlib qolgan tushunchalarni bildiruvchi soʻzlarning isteʼmoldan chiqib ketishi, yangi paydo boʻlgan tushunchalarni ifodalovchi soʻzlarning esa kirib kelish hisobiga oʻzgarib, rivojlanib boradi. Oʻzbek tili leksikasi bir qancha manbalar asosida boyib rivojlanib boradi. Ularni, eng avvalo, ikki katta guruhga ajratish mumkin:

- 1) oʻz ichki imkoniyatlari asosida;
- 2) boshqa tillardan soʻz olish asosida.

Ularning birinchisi *ichki manbalar*, ikkinchisi esa *tashqi manbalar* sanaladi.

Oʻzbek tilining birinchi yoʻl bilan boyib borishi imkoniyatlari juda kengdir. Masalan: ilgari qoʻllanilib, keyin isteʼmoldan chiqib ketgan soʻzlardan yangi tushunchalarni ifodalash uchun foydalanish: *vazir, hokim, viloyat, shirkat, noib, tuman* kabi; yasovchi qoʻshimchalar yordamida yangi soʻz yasash: *uyali telefon, omonatchi, pudratchi, bojxona, auditchi (auditor)* va boshqalar;

dialektal (shevadagi) soʻzlarni faollashtirish: *mengzamoq* (Xorazm) “oʻxshatmoq”, “tenglashtirmoq”, “qiyoslamoq” maʼnosida.

Oʻzbek tili leksikasi *tashqi manbalar* asosida ham boyib bormoqda. Dunyoda boshqa tillardan soʻz olmasdan faqat oʻz ichki imkoniyatlari asosidagina rivojlanadigan birorta ham til yoʻq. Bundan oʻzbek tili ham mustasno emas. Faqat maʼlum zarurat tufayli yangi tushunchani ifodalovchi oʻz tilimizning ichki imkoniyatlari asosida ifodalab boʻlmagandagina tashqi manbalarga murojaat qilish foydalidir.

Yangilik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlar tilshunoslikda *neologizmlar* (yunoncha *neos* – yangi) deb ataladi. Neologizm tilga umuman mansub boʻlishi yoki yakka shaxs nutqiga xos boʻlishi mumkin. Birinchisi umumtil neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi. Leksemikada asosan umumtil neologizmi oʻrganiladi. Individual nutq neologizmi uslubga xos hodisa deb qaraladi⁵.

Har qanday neologizm dastlab individual nutqda yuzaga keladi. Bunday neologizm koʻpchilik tomonidan tan olinsa, tilning taraqqiyot qonunlariga mos holda hosil qilingan boʻlsa va tilda maʼlum maʼnoni anglatish uchun zarur deb qaralsa, shunda-gina umumtil neologizmiga aylanadi, yakka nutq doirasidan chiqadi. Agar bunday talablarga javob bermasa, individual nutq doirasida qolib ketadi. Umumtil neologizmi tilda maʼlum vaqt ishlatilganidan keyin yangilik boʻyogʻini yoʻqotadi va koʻpincha odatdagi, zamonaviy leksemaga aylanib ketadi.

Neologizmning yuzaga kelishi quyidagi omillarga tayanadi:

1. Jamiyatda yangi voqelik paydo boʻladi, bu voqelikni nomlash zarurati esa tilda yangi soʻz yoki atamaning yuzaga kelishini taqozo qiladi. Bunda:

a) voqelikning nomi boshqa tildan oʻzlashtiriladi: *komputer, monitoring, slayd* kabi;

⁵ Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Darslik. T.: “Universitet”. 2006

b) voqelikning nomi o'zbek tilining o'zida yasaladi: *MDH* (mustaqil davlatlar hamdo'stligi) kabi.

2. Jamiyatda yoki tabiatda mavjud bo'lgan voqelikning nomiga sinonim tarzida yangi so'z yasaladi: *eskirtma* (*arxaizm* atamasining yangi yasalgan sinonimi), *yangirtma* (*neologizm* atamasining yangi yasalgan sinonimi) kabi. Xullas, neologizmlarni kundalik turmushdagi yangicha munosabatlarni, yangi narsalar va ularning belgilarini, yangi hodisalar, tushunchalarni ifodolovchi lug'aviy birliklar sifatida e'tirof etish mumkin. Bunday so'zlar xususiyatiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1. Leksik neologizmlar.

2. Semantik neologizmlar.

Leksik neologizmlar tilga tamoman o'zlashib ketmagan o'zbek tilining o'zida yasalgan yoki boshqa tillardan o'zlashib butunlay iste'molga kirmagan so'zlardir. Masalan, *zovut, zamin studiyasi, sarhad, kollej, menejment, bakalavriyat, magistratura, dastur, bar, bojxona, aksiya, bandargoh, tuman* kabilar.

Semantik neologizmlar tilda oldindan mavjud bo'lgan va hozirda yangi ma'noda ishlatilayotgan so'zlardir. Masalan, *noyib (deputat), tuman (rayon), viloyat (oblast), do'kon (magazin), tadbirkor, pudrat, sarmoya, vazir, hokim, anjuman (konferensiya)* va boshqalar.

Yuqoridagi tasnif ko'plab adabiyotlarda xuddi shu mazmunda berilgan. Masalan, professor Sh.Rahmatullayev o'z kitobida shunday keltiradi: "Leksik neologizm o'z mohiyatiga ko'ra ikki guruhga ajraladi: a) Leksema yaxlitligicha neologizm bo'ladi; buni *neologizm-leksema* deb nomlash mumkin: (*paxta*) *yakka ziroatchiligi-*, *ma'muriyatchilik-* kabi. b) Leksema emas, balki uning sememalaridan biri neologizm bo'ladi; buni *neologizm-semema* deb nomlash mumkin: *o'tkirlashtir-* (*obostryat* leksemasining kalkasi) kabi. Neologizm-leksema bilan neologizm-semema asli bir hodisa, chunki har ikkisi leksik ma'noga asoslanadi: birinchisi yangi monosemem (bir ma'noli) leksema bo'ladi,

ikkinchisi esa polisemem (ko'pma'noli) leksemaning keyingi, yangi ma'nosi bo'ladi. Shunga ko'ra neologizmning bu turlarini "leksik neologism", "semantik neologism" deb nomlash to'g'ri bo'lmaydi".

Neologizmlar davriy xususiyatga ega sanaladi. Masalan, bir paytlari yangi atamalar sifatida tilga kirib kelgan *avtobus*, *trolleybus*, *metro* kabi so'zlar bugungi kunda yangilik bo'yog'ini yo'qotib, zamonaviy qatlamga oid leksik birliklarga aylangan. 80-yillarning o'rtalaridan boshlangan ijtimoiy hayotdagi keskin o'zgarishlar barcha sohalarda bo'lgani singari tilshunoslik sohasida ham tub o'zgarishlarning sodir bo'lishiga olib keldi. Ayniqsa, bu holat o'zbek tili leksikasida kuchli bo'ldi⁶.

Har qanday neologizm dastlab ayrim shaxs nutqida voqe bo'ladi, bunday paytda u individual nutq neologizmi sanaladi. Masalan; "*Bek akang ko'rinmay qoldi-ku? dedi qesakpolvon labiga sigaret qistirib. Xumkalla cho'ntagidan chaqqonlik bilan yoqqich olib unga olov tutdi...*" (T.M.) Bu gapda *yoqqich* so'zi ruscha *zajigalka* so'zining kalkasi tarzida qo'llangan, uni asar muallifi (Tohir Malik) o'zi yasagan va o'zi individual nutq neologizmi sifatida birinchi bo'lib ishlatgan. Demak, bu so'z hozircha umumtil neologizmi darajasiga ko'tarilmagan, chunki u nutq ixtiyorida til ixtiyoriga o'tmagan.

Ba'zan ancha ilgari yaratilgan individual nutq neologizmlari ham umumnutq neologizmiga aylanmay qolib ketadi. Buni atoqli yozuvchi Abdulhamid Cho'lpon tomonidan o'z vaqtida yasalgan *ozitqiso'zi* misolida yaqqol ko'rsa bo'ladi: "*...Har bir ona suti og'zidan ketmagan tentak gimnazistni bir «ozitqi» deb bilardi*". Abdulhamid Cho'lpon bu gapdagi *ozitqi* so'zini *achitqi*, *qichitqi* tipidagi yasalmalar modeliga (qolipiga) suyanib yasagan va uni "yo'ldan ozdiruvchi" (ruscha "soblaznitel») ma'nosida qo'llagan. Bu nutqiy parchada *ozitqi* so'zining yangi lisoniy-badiiy topildiqlik sifatida alohida estetik

⁶ Suvonova R. So'z o'zlashtirish va metonimiya. "Ozbek tili va adabiyoti" jurnali. Toshkent. 2006/6.

qimmat kasb etganligi shubhasiz, ammo u shu matndan tashqariga, umumtil doirasiga chiqqan emas, demak, umumtil neologizmi holatiga o'tmagan⁷.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, o'zbek xalqining o'z erkiga, ozodligiga erishishi esa bu jarayonni yanada tezlashtirdi, tilimizda yuzlab, minglab neologizmlar paydo bo'ldi. Xususan, *iqtisodiyot, bank va kredit, diplomatiya* kabi bank sohalarida yangidan yangi atamalar paydo bo'ldi. *Bozor iqtisodiyoti, litsenziya, monitoring, debitor, kvota, menejer, menejment, brutto qarz, frank bozori* kabi atamalar shular jumlasidandir.

Barcha tillarning lug'at tarkibi taraqqiyotini belgilovchi qonuniyatlar ko'riladi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlarini lug'at tarkibiga ta'siri, buning lug'at tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib kelishi, lug'aviy birliklarning zamoniylik, tarixiylik, ekspressiv-stilistik jihatdan qatlamlanishi, ma'lum tematik va leksik-semantik guruhlariga uyushishi kabi jarayonlar barcha tillarga xosdir.

Jamiyatda ijtimoiy tuzumning o'zgarishi fan va madaniyatning rivojlanishi, ilmiy-texnika taraqqiyotidagi yangiliklar u yoki bu tilning lug'aviy qatlamida ham o'z ifodasini topadi. Lug'aviy qatlam tilning boshqa sathlariga nisbatan tez o'zgarishga moyil bo'lgan struktural elementi sanaladi. Hayotda, ilm-fanda yuz beradigan voqea-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi tushunchalarni ifodalovchi so'z va iboralar tilda to'xtovsiz ravishda shakllanib turadi. Yangi predmet va tushunchalarni til birliklari yordamida ifodalashda jamiyatning talabini qondirish uchun mavjud til materiallari negizida yangidan yangi so'zlar, iboralar yasaladi. Natijada tilda mavjud so'zlarning ma'nolari kengayadi, o'zgaradi, ijtimoiy-tarixiy sharoitlar talabi bilan bir tildan ikkinchi bir tilga so'zlar o'tadi va yangi lug'aviy qatlam vujudga kela boshlaydi.

Tilda yangi lug'aviy qatlam - neologizmlar tashqi (ekstralingvistik) va ichki (lisoniy) omillar asosida vujudga keladi. Lisoniy omillar (lingvistik

⁷ Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili.

faktorlar) - tilning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlaridan kelib chiqadigan omillar. Nolisoniy omillar (ekstralingvistik faktorlar) - til taraqqiyotiga (shu jumladan, leksik tizim rivojiga) tashqaridan ta'sir o'tkazuvchi omillar: ijtimoiy-siyosiy tizim, psixologiya, urf-odatlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, adabiyot-san'at va boshqalar.

Masalan, matbuot sahifalarida boshqa tillardan o'zlashgan yangi so'zlar - neologizmlar juda keng qo'llanadi. Bu esa neologizm hosil qilishning ekstralingvistik omili sanaladi. Mustaqillik davrida rasmiy ish qog'ozlarining davlat tilida yuritilishi juda ko'plab yangi o'zbekcha neologizmlarning hosil bo'lishiga olib keldi. Shu kungacha qo'llangan *spravka, xarakteristika, akt, instruksiya, raport, protokol, kontrakt* kabi so'zlarning yangi o'zbekcha muqobillari hosil qilindi: *spravka* – ma'lumotnoma, *xarakteristika* - tavsiyanoma, tavsifnoma; *akt* - dalolatnoma, *instruksiya* - yo'riqnoma, *raport* - bildirish, bildirishnoma; *protokol* – bayonnoma, majlis bayonnomasi; *rezolyutsiya* - munosabat belgisi, *kontrakt* - shartnoma va hokazo.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda bozor munosabatlarining vujudga kelishi, bank ishlarining taraqqiyoti bilan bog'liq holda german va roman tillaridan rus tili orqali o'zlashgan yangi so'zlar - neologizmlar bilan bir qatorda tilimizning ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan bir qancha neologizmlar ham keng qo'llana boshladi. Masalan: *biznesmen* - ishbilarmon, *fermer* - mulkdor, *auditor* - savdogar, *auksion* - ochiq savdo, *aksiya* - qimmatbaho qog'oz va boshqalar. Bunday neologizmlarning asosiy qismi ingliz tilidan o'zlashgandir.

Ma'lumki, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, uyg'ur qoraqalpoq singari tillar o'zaro qarindosh tillar bo'lib, ular birligi turkiy tillar guruhini tashkil etadi. Tilimizda faol qo'llanadigan *oyoq, qo'l, ikki, uch, ol, kel, yaxshi, men, sen* singari so'zlar ko'pchilik turkiy tillar uchun ham faol so'zlar hisoblanadi. Barcha turkiy tillar uchun umumiy iste'molda bo'lgan bunday so'zlar

umumturkiy soʻzlar deyiladi. Oʻzbek tili leksikasining katta qismini umumturkiy qatlamga mansub soʻzlar tashkil etadi.⁸

Tilimizda umumturkiy soʻzlarning quyidagi leksik-tematik guruhlarini faol ishlatiladi:

1) inson tushunchasi bilan bogʻliq soʻzlar: *kishi, el, yurt*;

2) qarindoshlik tushunchalari bilan bogʻliq soʻzlar: *ota, ona, opa, enaga, aka, uka, singil, qayin, qayinogʻa, yanga* va boshqalar;

3) odam va hayvon tana aʼzolari nomlari: *barmoq, bagʻir, bel, boʻgʻiz, biqin, milk, miya, ogʻiz* va boshqalar. Muayyan tushuncha doirasida birlashuvchi bunday soʻzlar guruhi uyadosh soʻzlar deyiladi.

Shuningdek, tilimiz lugʻat boyligining maʼlum bir qismi oʻzbek tilining milliy tarixiy taraqqiyoti jarayonida tilning ichki imkoniyatlari, oʻziga xos qonun-qoidalar asosida hosil qilingan soʻzlardan iborat. Ular quyidagi uch holatda kuzatiladi:

1. Oʻzbekcha oʻzak va qoʻshimcha asosida hosil qilingan soʻzlar: *qatnashchi, terimchi, ogʻmachi, birlashma, qotma, oʻtkazgich, turgʻun, qoʻllanma, yoqilgʻi*.

2. Oʻzlashma oʻzak (soʻz) va oʻzbekcha yasovchi qoʻshimchalar yordamida hosil qilingan soʻzlar: a) tojikcha soʻzlardan: *jangchi, mardlik, charxlamoq, xastalanmoq, doʻstlik*; b) arabcha soʻzlardan: *rahbarlik, qimmatli, ovqatlanmoq, nomusli*; v) ruscha va boshqa xorijiy tillardan oʻzlashgan soʻzlar asosida: *sportchi, shofyorlik, betonchi*.

3. Oʻzbekcha oʻzak va oʻzlashma qoʻshimchalardan hosil boʻlgan soʻzlar: *tugʻruqxona, soʻrovnoma*.

4. Boshqa tillardan kirib kelgan oʻzak va yasovchi qoʻshimchalardan: *tilshunos, madadkor, mehnatkash, vagonsiz, ilmiy, gazetxon*.

⁸ N.Turniyozov, A.Rahimov. Oʻzbek tili. (Maʼruzalar matni). 1-qism, Samarqand, 2006. 52-53 b.

Qayd etib o‘tilgan umumturkiy so‘zlar va o‘zbek tilining o‘z ichki imkoniyatlari asosida shakllangan so‘zlar tilning o‘z qatlamini tashkil etadi. Shuningdek, tilimiz o‘zbek lahja va shevalaridan, qardosh turkiy milliy tillardan kirib kelgan so‘zlar hisobiga ham boyib boradiki, bu ham uning o‘z qatlami imkoniyatlarini oshiradi.

Yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni turli jihatlariga ko‘ra tasniflash mumkin. Avvalo, ularni ijtimoiy-siyosiy atamalar: vazir, vazirlik, devonxona, hokim, tuman, agrofirma, fermer kabi;

iqtisodiy atamalar: diler, lizing, injenering bozor infrastrukturasi;

ilm-fan, texnikaga oid atamalar: internet, kompyuter, diskovod, skaner;

maktab-maorifga tegishli bo‘lgan leksik birliklar: akademik litsey, kollej, dastur singari o‘nlab yo‘nalishlarga bo‘lib yuborish mumkin.

Neologizmlar ichida o‘tkinchi, shoshma-shosharlik bilan, sun’iy ravishda hosil qilingan leksemalar ham uchraydi. Masalan: *majalla, jarida, oynoma, ochqich, yozg‘ich, barnoma, oliy bilimgo‘h* kabi. Ularni xalq qabul qilmay tezda iste‘moldan chiqarib yubordi.

Bitiruv malakaviy ishimiz davomida o‘zbek tili leksikasining tashkil topishida 3 komponent muhim rol o‘ynaydi, degan xulosaga keldik. Bular quyidagilardir:

1. Barcha so‘zlar eng qadimgi turkiy tildan kelib chiqqan bo‘lib, o‘zbek tili leksikasining rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi, bundan tashqari kundalik ishlatiladigan so‘zlar va iboralar yuqoridagi unsurlarda o‘z ifodasini topadi.

2. O‘zlashma so‘zlar, bunday so‘zlar boshqa tillardan kelgan bo‘lib, bular quyidagilar: arab, fors-tojik, rus, nemis, fransuz, ispan, ingliz va boshqalar. Bu so‘zlaning qiziqarli tomoni shundaki, ular asosan klassik tillarning birlashmasidan hosil bo‘lgan (arab, turk, fors-tojik).

3. Neologizmlar, bu turdagi so‘zlar tilda mavjud bo‘lgan so‘zlardan suffiks, prefiks va qo‘shimchalar qo‘shish orqali yasaladi.

Yuqorida ko'rsatilgan uch komponentdan tashqari leksikaning rivojlanishiga ikkinchi darajali unsurlar ham yordam beradi. Bular:

Onomatopeya – bir so'z shaklidan boshqa bir so'zning shakllanishi

Qisqartirilgan so'zlar – nomlarning qisqartirilib faqat bosh harflarda ifodalanishi.

Chet tilidagi so'zlarning tilimizga kirib kelishi va ularning ishlatilishi tilimizda ma'lum bir yangi so'zlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi va bu turdagi so'zlar guruhi o'zlashma so'zlar deyiladi.

O'zlashma so'zlarning asosida so'zlar yotadi ya'ni o'zlashma so'zlarning shakllanishi hech qanday o'zgarishsiz tilimizga o'zining shakli va ma'nosi bilan kirib kelishi kuzatiladi. Masalan *bar, film, lider*.

Ko'pchilik kishilar hech qanday o'zgarishsiz, qo'shimchalarsiz o'zlashma so'zlarni yaxshi tanishadi: *bar, film, lider*, chunki bunday so'zlar o'zbek tilidagi so'zlarning funksiyasini bajaradi, ba'zi bir insonlar esa aksincha qo'shimcha olgan, o'zgarishlarga uchragan o'zlashma so'zlarni bilishmaydi. Masalan ayrim sozlarning ingliz yoki fransuz tilidan kirib kelganini qancha so'zlashuvchi biladi? Ba'zi bir o'zlashma so'zlar o'zlarining asl shaklida yoki ularga to'g'ri keladigan shaklda ifodalanadi: misol qilib fransuz tilidagi *bojole, jilet, palto*, ingliz tilidagi *punch va ponce, roastbeef va rosbif* (yoki rosbiffe) larni aytib o'tishimiz mumkin.

O'zlashma so'zlarning aksariyati bu tarjima qilingan so'zlardir. Bunday so'zlarning ikki asosiy turlari mavjud bo'lib, ular quyidagilardir:

Semantik, ya'ni ma'no jihatdan tarjima qilingan so'zlardir. Chet tilidan kirib kelgan so'zning ma'nosi va shakli jihatdan o'zbek tiliga tog'ri kelishi va qo'llanilishida ko'rishimiz mumkin. Masalan *confort* (uy xizmatlari) ingliz tilida *comforts* kabi ifodalanadi. Yoki o'zbek tilidagi *autoritar* so'zi bir necha yil oldin "*rendere autorevole*", ya'ni 'mustaqil ishlamoq' ma'nosini anglatadi.

To'g'ridan-to'g'ri tarjima – kalka usulida o'zbek tiliga chet tilidan tarjima qilingan so'zlar guruhi: ingliz tilidagi *sky-scrafer*; nemis tilidagi *klassen kampf*.

O'zlashma so'zlar tillar orasidagi bog'liqlikni namoyon etuvchi muhim jarayondir. Neologizmlarning ikki tillilik (bilinguizm) bilan munosabati, so'zlovchilar tomonidan holat va joyga qarab ikki tildan foydalanish davomida ko'rinadi. O'zlashma so'zlarning kelib chiqishi xalq tili yoki boshqa tillarning ta'sirida ham yaqqol ko'rinadi, bundan tashqari ikki tilning bir-birini qadrlashida ham namoyon bo'ladi. Bunday holat nemis va roman tillarida kuzatiladi.

O'zlashma so'zlarni muhimlik va boylik tomonidan farqlashimiz mumkin. Birinchidan so'z qachonki referent (ya'ni obyekt va g'oya, fikr) bilan birga bo'l'sa, masalan patata gaytan so'zi bo'l'ib italyan tiliga ispan tili orqali kirib kelgan yoki caffe so'zi turk tilidan, zero arab tilidan (roman sonlarida zero, ya'ni nol mavjud bo'lmagan) tram, transistor, juke-box kabi so'zlar ingliz tilidan kirib kelgan.

1.2. Neologizmlarning paydo bo'lish sabablari

Neologizmlarning paydo bo'lishi boshqa tillarda bo'lganidek, o'zbek tilida ham xalqning turmushiga, ishlab chiqarish faoliyati, usuli atrof-muhit bilan munosabatiga qarab qadimdanoq xilma-xil lug'aviy qatlamlar tarkib topa boshlagan. Terminologlar, umuman, leksikologiya bilan shug'ullanuvchi olimlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'ladiki, inson turmush, kundalik faoliyati, bilan bevosita bog'liq bunday til birliklari va qadimiyligidan tashqari o'zining barqarorligi, turli lisoniy o'zgarishlarga moyil emasligi bilan ajralib turadi. Ishlab chiqarish qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, qarindosh-urug'chilik nomlari, tabiat hodisalarini ifodalovchi leksemalar shular jumlasidandir.

Leksemaning yangi bo'lishi boshqa-yu, yangilik bo'yog'iga ega bo'lishi boshqa. Har qanday yangi leksema neologizm bo'lavermaydi. Masalan, *kompyuter-*, *ksereks-*, *birja-* kabilar – o'zbek tiliga yaqin vaqtlarda kirib kelgan leksemalar, lekin bu leksemalarni neologizm deb bo'lmaydi, chunki bu leksemalar hozirgi o'zbek tilida yangilik bo'yog'ini yo'qotib, odatdagi leksemaga aylangan⁹.

Demak, neologizm – o'ta nisbiy tushuncha. Avvalo, til taraqqiyotining har bir bosqichi o'z neologizmiga ega bo'ladi, bir bosqichda neologizm deb qaralgan hodisa ikkinchi bosqichda ham neologizm bo'lishi shart emas. Masalan, 30- yillar nuqtayi nazaridan *shpal-*, *seyalka-* kabi leksemalar neologizm deb baholansa, hozirgi o'zbek tilida bular odatdagi, zamonaviy leksemaga aylangan; 20- yillar nuqtayi nazaridan neologizm deb qaralgan *aeroplan-*, *yo'qsil-* (proletariy) kabi leksemalar esa arxaizmga aylangan.

Ikkinchidan, neologizmni belgilashda shu hodisaning tilda (individual neologizmning esa nutqda) qancha vaqt mavjudligi ham ahamiyatsiz. Leksema juda qisqa vaqt ichida neologizmlikdan chiqib ketishi ham, uzoq vaqt

⁹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. T.: "Universitet". 2006

neologizmligicha qolib ketishi ham mumkin. Umumtil neologizmi odatdagi, zamonaviy leksemaga tez aylanadi; individual nutq neologizmi esa, qancha vaqt o'tmasin, o'z yangilik bo'yog'ini yo'qotmasligi, umuman neologizmligicha qolib ketishi mumkin. Masalan, *tuzum-* leksemasi 20--30- yillarda neologizm edi, hozir odatdagi leksemaga aylangan; G'afur G'ulomning ilk poeziyasida uchraydigan *mozollan-* (*mozollangan qo'llar* - «Olqish», «Tagdo'zi»), *fashistlan-* (*fashistlanaroq* - «To'qinish»), *qo'ng'irla-* (*Qo'zichoqning barrasiday mayda qo'ng'irlab* – «Non») kabilar o'zi ishlatilgan asar doirasida individual nutq neologizmligicha qolib ketgan.

Neologizm ikki xil talabga (ehtiyojga) ko'ra paydo bo'ladi:

1. Yangi voqelikning yangi nomi sifatida. Bunda neologizm o'zi anglatayotgan voqelikning yagona nomi bo'ladi, nominativ vazifani o'taydi: *konfliktsizlik* (adabiyotshunoslik termini), *kosmodrom-* (Har ikki leksema yangilik bo'yog'ini tezda yo'qotdi), *mahkamachilik-* kabi.

2. Nomlangan voqelikning yangi nomi bo'ladi. Haqiqiy neologizm asli shu. Bunda o'zigacha nomlangan voqelikni yangidan nomlaydi, natijada sinonimiya tug'iladi. Masalan, *fotokartochka-* leksemasi avval neologizm sifatida *suvrat-* leksemasi bilan sinonimik munosabat hosil etdi. Natijada *suvrat-* va *rasm-* leksemalarining leksik ma'nolarida chegaralanish, xoslanish voqe bo'layotir. Bu har ikki leksema "kartina" ma'nosini ham, "fotokartochka" ma'nosini ham anglataverar edi. Hozir esa *suvrat-* leksemasi asosan "kartina" ma'nosini, *rasm-* leksemasi asosan "fotokartochka" ma'nosini anglatish uchun ishlatilmoqda.

Neologizm quyidagi yo'llar bilan paydo bo'ladi¹⁰:

1) Leksema yasash orqali. Bunda ikki hodisani farqlash kerak:

a) Yangidan yasash yo'li bilan hosil qilinadi: *almashlab* (*ekish*), *aqidaparastlik-* umumtil neologizmlaridagi, *sho'xshanlan-* (G'afur G'ulom,

¹⁰ Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. T.: "Universitet". 2006. 95-bet.

«Baxt tongotari»), *kuzaytir-* ('kuzga aylantir-' - G'afur G'ulom, «Biz tinchlik istaymiz») individual nutq neologizmlaridagi kabi.

b) Mavjud leksemaga parallel ravishda yasash yo'li bilan paydo bo'ladi. Bu yo'l bilan asosan individual nutq neologizmi hosil bo'ladi: *sezim-* (*sezgi-* leksemasiga nisbatan; G'afur G'ulom, «Qalblarning mojarosi»), *shaklcha-* (*shaklan-* leksemasiga nisbatan), *mazmuncha-* (*mazmunan-* leksemasiga nisbatan: .. *shaklcha ko'p sodda, mazmuncha salmoqdor qarorlar..* - G'afur G'ulom, «Hech qanday bir qo'rg'on bormikan...») hollaridagi kabi.

2) Leksemaning leksik ma'no taraqqiyoti yo'li bilan paydo bo'ladi. Masalan, *bekat-* leksemasining 'transport vositalarining to'xtash joyi' ma'nosi kabi. Bu leksema asli 'uzoq qatnov yo'lidagi to'xtab, dam olib, tunab o'tiladigan joy' ma'nosini anglatadi.

3) O'zlashtirish orqali paydo bo'ladi: *detal-* leksemasining 'tafsilot', 'mayda-chuyda' ma'nosi kabi: *Qiladigan ishlarigizning ba'zi detallari haqida mana bu kishi ma'lumot beradi. Detal-* leksemasining 'qism' ma'nosi hozir neologizmlikdan chiqqan.

XXI asr jahon hamjamiyati tomonidan ulkan o'zgarishlar, texnik taraqqiyot, axborotlashtirish asri sifatida tarixda qolishi e'tirof etilmoqda. Ayni paytda qisqa muddat davomida yangiliklarning dunyo bo'ylab ommalashishi, jamiyatdagi shunday yangiliklarga bo'lgan ehtiyoj har bir til leksik tarkibining ma'lum bir jihatdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Bugungi kun neologizmlarning kirib kelishi, ularni omma tomonidan iste'molda bo'lishi tilimiz lug'atlarida aks etishini kutayotgani yo'q. Zamonaviy texnika sohasidagi xalqaro bog'liqlik va yaqinlik tilimizda ko'plab shunday tushunchalarni o'z so'zlarimiz bilan ifodalashga o'rin qoldirmayapti. Ba'zi bir o'zlashma so'zlarning ma'nolari lug'atlarda ham qayd etilmagan (*flesh, koka-kola*). Bugungi kunda zamonaviy texnika so'zlari dunyo bo'ylab baynalmilal soha so'zlari darajasiga ko'tarilib bormoqda.

Istiqoldan so‘ng o‘zbek tili lug‘at boyligi ham shunday so‘zlar hisobiga kengaydi va taraqqiy etdi. Buning sabablari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin.

1. Mustaqillikdan so‘ng jamiyat hayotida siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va boshqa sohalarda bo‘lgan o‘zgarishlar.

2. Jahon miqyosidagi ilf-fan, texnik taraqqiyot ta‘siri.

3. Xorijiy tilda muloqot qiluvchi yurtdoshlarimizning o‘zlashma so‘z va terminlarni o‘z nutqlarida ko‘plab qo‘llashlari.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida o‘zlashma so‘zlarning qaysi tilga tegishli ekani alohida shartli qisqartmalar asosida ko‘rsatilar ekan, ularning o‘z tilidagi lug‘aviy ma‘nosi va tilimizga o‘zlashganidan keyingi monosemantik yoki polisemantik xususiyati alohida ko‘rsatib berilgan. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, o‘zbek tilining izohli lug‘atida o‘zlashma so‘z olib kirgan tillar sifatida 16 ta til so‘zlaridan misollar berilgan. Bular sirasiga arab, fransuz, fors-tojik, golland, hind, ingliz, ispan, italyan, lotin, mo‘g‘ul, nemis, polyak, rus, xitoy, yunon, chex tillari kiritilgan. Biroq adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati¹¹ va qisqacha siyosiy lug‘at¹²da portugal va skandinavcha tillardan olingan so‘zlar ham ko‘rsatilgan. Bu kabi tillardan olingan so‘zlar ma‘lum bir sohaga oid termin ekanligi uchun “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan o‘rin olmagan bo‘lishi mumkin.

Neologizmlarning paydo bo‘lish yo‘llari xilma-xil bo‘lib, ular tilning mavjud lug‘aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so‘z yasash yo‘li, shuningdek, mavjud so‘zning lug‘aviy ma‘nolaridan birini yangi ma‘noda qo‘llash yo‘li bilan va boshqa tildan so‘z qabul qilish orqali hosil qilinadi¹³.

Ma‘lumki, tilda umumtil neologizmi va individual nutq neologizmi mavjud bo‘lib, umumtil neologizmi jamiyat hayotida katta o‘rin egallaydi. Bunday

¹¹ Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. –T. O‘qituvchi. 1979. 6-B.

¹² Onikov L.A., Shishlin N.V. Qisqacha siyosiy lug‘at. –T. O‘zbekiston. 1983. 6-B.

¹³ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. 308-B.

neologizmlar muallif tomonidan ma'lum bir uslubiy talab asosida yaratiladi. Biroq har qanday yangi neologizmlar, avvalo, individual nutqda paydo bo'ladi. Bunday so'zlar jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilinsa, til tizimida shu so'zga ehtiyoj bo'lgan holatdagina o'z vazifasini bajarib, umumtil neologizmi qatoriga o'tishi mumkin.

Ba'zi manbalarda neologizmlar ma'lum bir guruh va turlarga ajratib o'rganilar ekan, haqiqiy neologizmlarning paydo bo'lishi nomlangan voqyelikning yangi nomi bo'lishi lozimligini asos qilib olishadi¹⁴. Biroq hozirgi paytda til tizimida neologizmlarning paydo bo'lish talabi jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda o'zgardi. So'zlarning bir tildan ikkinchi tilga o'tishi ma'lum bir yangi voqyea-hodisaning yangi nom sifatida shakllanishiga, til leksik "bazasi"ga o'rinlashishiga sabab bo'lmoqda. Jahon xalqlari orasidagi o'zaro madaniy, siyosiy, iqtisodiy hamkorlik til rivojlanish jarayoniga ham o'zining shunday ta'sirlarini o'tkazib bormoqda.

¹⁴ O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. 308-B.

II BOB. O‘ZBEK TILIDA NEOLOGIZMLARINING QO‘LLANISHI

2.1. O‘zbek tilidagi neologizmlarning turlari

Neologizmlarning boylik jihatdan stilistik va ijtimoiy holati muhim o‘rin tutadi. Jamiyatni, madaniyatni, yashash sharoitini eslashga xizmat qiladi: o‘zlashma so‘zlarning boyligi *leader, flirt, baby-sitter, week-end* so‘zlarida ko‘rinadi. Ingliz tilidagi so‘zlar va birikmalar ba’zida ularning qisqaligi qulaylik tug‘diradi: ya’ni jurnalistika tilida, sohasida uchrab turuvchi so‘zlarni tushuntirib beradi, masalan *boom, show* italyan tilidagi ekvivalentlari quyidagilar *show* (teatrning turi, bir necha har xil bo‘g‘inlardan tashkil topgan italyan tilidagi ekvivalenti *sit-in* ma’lum bir joyda tomoshabinlarni yig‘ish).

O‘zlashma so‘zlar yozma va og‘zaki shakllar orqali tilga kirib keladi. Tunnel so‘zi yozma til orqali kirib kelgan. Agar *tunnel* so‘zi og‘zaki tildan kirib kelganda edi *tanel* deb talaffuz qilinar edi xuddi ingliz tilidagidek. *Budget* aksincha *badjet* deb talaffuz etiladi, chunki og‘zaki tildan kirib kelgan. Shunday turdagi ingliz so‘zlari borki, ular O‘zbekistonda har xil talaffuz etiladi, masalan:

inglizcha talaffuz

flirt | flə:t| |flert|

ingliz talaffuziga o‘xshatish

o‘zbekcha talaffuz

| flert| flirt

o‘zbekcha talaffuz

Quyidagi talaffuz turlari har xil faktorlardan kelib chiqadi, shuningdek chet tilini yaxshi bilish ham muhim o‘rin tutadi. Shuni ham aytib o‘tishimiz joizki o‘zbek tiliga kirib kelgan ba’zi bir so‘zlarga hech qanday o‘zgartirishlar kiritilmagan, jumladan *flirt, leader* va boshqa so‘zlar. O‘zbek so‘zlashuvchilari orasida ingliz fonetikasi va anglitsizmlarni juda yaxshi o‘rnashib olishgan, yuqorida ko‘rib o‘tilgan *bar, film, sport, flirt* va boshqalar kabi.

Shuni eslab o‘tishimiz joizki o‘zbek tiliga kirib kelgan ingliz o‘zlashma so‘zlari o‘zbek tilida talaffuz etilgan, xuddi shu holat italyan o‘zlashma so‘zlarida ham kuzatilgan, misol qilib shuni aytishimiz mumkinki, haqiqiy

o‘zlashma o‘zlashma neologizm va chet tilidan kirgan so‘zning ma’nosini va ko‘chma ma’nolarini to‘g‘ri farqlay olishimiz zarur. Misol qilib ba’zi bir O‘rta Sharq olimlari o‘zlashma so‘zlarni yaxshi eslay olishgan, ammo ularni talaffuz eta olishmagan shu vaziyatda ular so‘zlarning ko‘chma ma’nolarini qo‘llashgan.

Neologizmlarga nimalar kiradi? Ot, fe‘l va sifat so‘z turkumlariga oid so‘zlar kiradi. O‘zlashma fe‘llar va sifatlar ikki lingvistik tor ma’noda uyg‘unlashadi va bundan tashqari bilingvistik sharoitni yaratadi. Yana shuni ham aytib o‘tishimiz joizki o‘zlashma so‘zlar morfologiyaning elementlari ham deyiladi.

Zamonaviy lingvistika neologizmlarni (yunoncha “neos” yangi va “logos” so‘z) lingvistika evolyutsiyasining asosiy personaji sifatida ta’kidlaydi. Yangi so‘z bu leksikaning boyishi demakdir. Yangi so‘zning shakllanishidagi barcha jarayonlar neologiya deb ataladi.

Neologizmlar qayerda xabar va yangiliklar tezlikda tarqalsa, o‘sha hududlarda tez shakllanadi va rivojlanadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek neologizmlar tilda mavjud so‘zlardan, qisqartirilgan so‘zlardan, acronimlardan va bir so‘zning tovushlarini o‘zgartirish orqali ham yasaladi.

Neologizmlarning tilda paydo bo‘lishi va yo‘qolishi uning tilga qabul qilinganligida yoki lug‘atlardan joy olganligida namoyon bo‘ladi. Agar neologizmlar jamiyat fuqarolari tomonidan qabul qilinib foydalanilayotgan bo‘lsa, bu neologizmlar lingvistika va lug‘atshunoslikda ham qabul qilingan hisoblanadi. Neologizmlarning paydo bo‘lishi tilning rivojlanishida, o‘zgarishida o‘zining muhim o‘rniga ega. Tilda neologizmlarning quyidagi turlari kuzatiladi:

o‘zgaruvchan – yangi ma’noli, birgina madaniyat vakillari tomonidan tor ma’noda qo‘llanilgan neologizmlardir.

tarqalgan – jamiyat tomonidan ishlatiladigan, ammo hali lingvistik jihatdan qabul qilinmagan neologizmlar.

Turg'un, stabil – barcha taniydigan, foydalanadigan va davomiylikga ega neologizmlar.

Neologizmlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

Ilmiy – ilm-fanda yaratilgan yangi termin yoki qoidalarga tasnif berish uchun yaratilgan so'zlar guruhi.

Texnologik – yangi texnika va texnologiyaning paydo bo'lishi bilan iste'molga kiritilgan so'zlar jamlanmasi.

Siyosiy – siyosatga va iqtisodga kiritilgan yangi termin va buyruqlarni ifodalashda keng qo'llaniladigan so'zlar.

Keng tarqalgan, popular – ommaviy axborot vositalari orqali tarqalgan.

Arab tilidan o'simliklar va sabzavotlarning nomlari, jumladan: apelsin, baqlajon, ismaloq, shakar, artishok-o'simlik turi, paxta; savdo-sotiqqa taalluqli so'zlar guruhi: *magazin* (do'kon, ombor), *tara* (chegirma), *tarif* (tannarx), dengizchilikga oid so'zlar: *arsenal* (qurol-yaroq ombori) kirib kelgan.

Yunon, hind va forslarning madaniyatini saqlab qolishgan arablar fan va madaniyat cho'qqisini zabt etdilar. Arablar tufayli bir qancha arabizmlar yuzaga keldi, quyidagilar shular jumlasidandir, matematika faniga oid so'zlar: *algebra*, *algoritm*, *sifra* (raqam), *zero* (nol); astronomiyaga oid: *almanax*, *taqvim* (kalendar), "*apogee*" (yuqori nuqta), *nodir* (nodir nuqtasi), *zenit* (zenit); sanoat va texnikaga oid so'zlar: *alkimyo*, *eliksir*, *canfora* (mazut), *talk*, *alcali* (ishqorli tuz), shaxmat o'yiniga oid: *alfier* (fil). Ba'zi bir arabizmlar uzoq tarixga ega bo'lib, bular: kolba – *shisha idish*, *alkimyo*lardir. Yuqoridagi so'zlarning o'zlashish jarayonining ko'p holatlarida so'zlarning ma'no jihatdan o'zgarishini ko'rishimiz mumkin.

Yangi so'z – bu biron-bir soha (fan, texnika, san'at va h.k.)ga tegishli muayyan tushuncha yoki maxsus narsani aniq ifoda etadigan so'z yoki so'z birikmasidir. Neologizmlarga qo'yiladigan talab - ular bitta ma'noli bo'lishlari kerak. Tilning lug'aviy majmuasida ular alohida bir salmoqli qatlamni tashkil qiladilar. Bunday so'zlar jamiyat tomonidan yasalishi, tartibga solinishi va

o'zgartirilishi mumkin bo'lgan yagona qatlamdir. Shuning uchun deyarli hamma tillarda neologizmlar ishlab chiqilishiga alohida e'tibor qaratiladi. Sohaviy neologizmlarni tayyorlash yoki ularni me'yorlashtirish uchun tilshunoslar va o'sha sohadagi mutaxassislardan tashkil topgan ishchi guruhlar, qo'mitalar tashkil qilinadi.

Barcha fanlar va texnikaga doir terminologik ishlarning maqsadi o'sha sohalar mutaxassislarininggina emas, balki umuman terminlar vositasida ish ko'radigan har bir shaxsning bir-biri bilan axborot almashish jarayonini amalga oshirishdan iboratdir. Bu jarayon esa lug'atlar vositasida yanada jadal tus oladi. Shunisi borki, lug'atda o'z "tasdig'i"ni olgan har bir termin bevosita yozma nutqqa-darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-tadqiqot ishlar, matbuot sahifalariga, qolaversa badiiy adabiyotga ham ko'chadi. Shunday ekan, har qanday termin u yoki bu tushunchani aniq, to'g'ri ifodalashni taqozo etadiki, ular o'zbek tilining qonun-qoidalariga binoan yaratilishi lozim bo'ladi. Iqtisodiyot fani bo'yicha nashr etilgan darslik va qo'llanmalar, ilmiy-ommabop asarlar, lug'atlarda o'z ifodasini topgan aksar terminlar o'zbek tilining ichki qonunlari asosida tushunchalarni aniq ifodalayotgani, bu esa o'qish-o'qitish jarayonining hozirgi talablar darajasida bo'lishiga yordam berayotganini ko'rish mumkin.

Hozirgi kunda atama so'zi bilan bir qatorda termin, istiloh ayni ma'noda qo'llanmoqda. Termin so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, bu so'z lotin tilidan olingan bo'lib, (terminus – chegara, had) bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi tushuniladi. Termin umumxalq tiliga muayyan terminalogik tizm orqali o'tadi, binobarin termin va umumiste'moldagi so'zlar bir-birini to'ldiradigan leksik birliklardir¹⁵.

Sistema xarakteriga egalik o'z terminalogik maydonda bir ma'nolikka moyillik, his-tuyg'uni ifodalamaslik, uslubiy betaraflik kabilar terminlarga xos

¹⁵ Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992.

xususiyatlardir. Soʻz bilan terminning umumiy va xususiy tomonlari yetarli darajada ochib berilgan emas. Kundalik turmushda keng isteʼmoda boʻlgan soʻzlar ayni paytda turli sohalarga doir terminlar hamdir.

Demak, oʻzlashma neologizm ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotga doir turli qatlamlarga mansub boʻlgan tushunchalarni ifodalovchi, muayyan guruh kishilari orasida bir maʼnolarda ishlatiladigan lisoniy birliklardir.

Neologizm tushunchasi va tarjimasini bilish uchun uning morfologik tuzilishini, umumisteʼmol soʻzlardan farq qiluvchi leksek xususiyatlari, atama soʻzlarning asosiy turlari va ularni qoʻllash usullarini bilish darkor. Bu esa, oʻz navbatida atama tomonidan ifodalanayotgan tushunchani toʻliq tushunishga, lugʻat tarkibidagi yangi soʻz maʼnosini topishda ishni osonlashtiradi.

Yangi soʻz aniq va qisqa boʻlishi kerak. Yangi soʻzning aniqlik tushunchasida uning maʼnoviy komponentlarining umumiy maʼnolari tushuniladi.

Neologizmlarning morfologik tuzilishi.

Barcha neologizmlar tuzilishiga koʻra quyidagicha boʻladi:

sodda neologizmlar – Avoid – bekor qilmoq, Credit - kredit (pul yoki tovar shaklida Кредит (ссуда в денежной - qarz berish) или товарной форме);

murakkab neologizmlar – Book-keeper– hisobchi buxgalter –счетовод, бухгалтер

atama soʻz - Capital income – Kapitaldan olinadigan daromad – Доход от капитала

Ilmiy-texnik matnlarda bir necha komponentlardan iborat neologizmlar koʻplab uchraydi. Koʻp komponentli amalar quyidagicha:

a) komponentlarning bitishuv yoʻli orqali ifodalanishi.

Masalan: Cargo scale – Yuk oʻlchami

Carrying charge – Saqlash qiymati

b) grammatik jihatdan yaʼni predloglar yoki qoʻshimchalar orqali ifodalanishi. Masalan: rate of exchange – valyuta kursi, Lack of credit – Kredit

tanqisligi. Ushbu atama – soʻzlar umumiy maʼnoni tashkil etadi. Atama–soʻzlarning uch turi mavjud.

1. Komponentlarning ikkalasi ham lugʻat tarkibida alohida maʼnoga ega. Masalan , Cash – Naqd pul, balance – hisob va boshqalar.

Ammo, ushbu komponentlardan tuzilgan ayrim atama - soʻzlar yangi maʼno ifodalaydi :

Cash balance – Kassa qoldigʻi

Cash payment – Naqd pul bilan toʻlash

Cash discipline – Kassa intizomi

Cash flow – Pul oqimi

Bu turdagi atama – soʻzlarning xarakterli jihati shundaki, ularning mustaqil maʼnolarining ajratilishidadir.

Terminologik sistemadagi neologizmlar maʼlum bir sohadagi tushunchani ifodalab, ular maʼlum predmetlar guruhiga, jarayonlariga oid tushunchalardir. Har bir terminologik guruhda umumiy bir unsur boʻladi. Masalan, til birlikaridan agro soʻzi – agronomiya, agroiqtisodiyot, agrobiznes, agrosanoat kabi neologizmlar uchun asosiy unsur hisoblanadi.

Oʻzbek tiliga Davlat tili maqomi berilgunga qadar va u amal qila boshlangandan keyin qator-qator matbuot xodimlari, hatto ayrim tilshunoslar Davlat tili haqidagi qonunni toʻliq joriy etish oʻrniga, uning ayrim bandlariga deyarli eʼtibor bermay, koʻpdan buyon qoʻllanib kelinayotgan va omma nutqiga singib ketgan koʻplab terminlarni, ularning ichki mazmunini oʻrganmay turib, yangidan notoʻgʻri hosil qilingan leksemalar bilan almashtira boshlashdi. Xatto “termin”, “terminologiya” kabilar “atama”, “atamashunoslik” leksemalari bilan almashtirib qoʻllanadigan boʻldi. Binobarin, “atama”, “atamashunoslik” kabi tushunchalar umumxarakterda boʻlganligi eʼtiborga olinmadi. Chunki, “atama” deyilganda terminologiyaga mutlaqo aloqasi boʻlmagan onomastika (toponimiya, antroponomiya, oykonimiya kabilar)ga aloqador leksik birliklar ham tushuniladi. Garchi, chet el va umuman, shoʻro tilshunosligida termin

nazariy jihatdan nisbatan to'liqroq o'rganilgan bo'lsa ham uning ta'rifi, termin va termin bo'lmagan so'zlarning bir-biridan farqlanuvchi belgilari, terminning tarkibi (uning nechta elementdan iborat bo'lishi singari masalalar) hali oxirigacha o'rganilgan va hal qilingan, deya olmaymiz. Bu hol to'laligicha o'zbek tilshunosligi va terminologiyasiga ham taalluqlidir.

Har qanday tushunchalar tizimiga muayyan terminlar tizimi to'g'ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda joriy qilinib ularning qo'llanishi ma'lum darajada nazorat ostida bo'ladi. "Terminlar paydo bo'lib qolmaydi", aksincha, ularning zaruriyati anglangan holda "o'ylab topiladi", "ijod qilinadi".

Shuningdek, oddiy so'zdan farqli ravishda, terminning ma'nosi kontekstga bog'liq bo'lmaydi, muayyan leksema terminologik ma'nosida va o'z terminologik maydonida qo'llanar ekan, ayni ma'no saqlanib qolaveradi. Biroq ko'p ma'noli terminlarning aniq ma'nosini ajratib olish uchun kontekstning zarurligi shubha tug'dirmaydi.

Terminologik birikmalarning ko'p leksemaliligi, ya'ni ular komponentlarining soni nechtagacha bo'lishi keyingi yillarda terminshunoslarning diqqat-e'tiborini jalb etib kelmoqda.

Haqiqatan ham keyingi yillarda miqdoran ortib borayotgan ko'p komponentli birikma terminlar tushuncha mazmunini to'laroq ifodalashga xizmat qilsa-da, ularni amalda qo'llash va esda saqlab qolish ancha noqulaydir. Aslini olganda, bunday terminlar ikki, nari borsa uch, to'rt komponentdan iborat bo'lishi lozimki, natijada, birikma terminlarning komponentlari, tegishli belgilarni to'laroq aks ettirish maqsadida, aniqlovchilar, sifatdoshli birikmalar qo'shish orqali hosil qilinishi darkordir. Bu tushunchani ifodalashning dastlabki bosqichiga xos holat bo'lib, keyinchalik tushuncha haqida muayyan tasavvur yuzaga kelgach, u qadar ahamiyatsiz belgilarni ifodalagan komponent (so'z)lar qisqartirilishi, binobarin termin ixchamroq holga keltirilishi mumkin. Biroq bu

jarayon boshboshdoqlik, tavakkalchilik asosida emas, balki ma'lum qonun-qoidalar asosida ongli ravishda amalga oshirilishi lozim. Ta'kidlash joizki, terminlar masalasi bilan shug'ullangan deyarli barcha olimlar mazkur tushunchaning ta'rifini berishga urinib ko'rishgan. Ularning barchasigina emas, ayrimlarini, ham namuna tariqasida keltirib o'tish ko'plab sahifani egallagan bo'lardi. Shuning uchun ularni jamuljam etgan holda "termin" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Umuman iqtisodiy so'z va terminlar uzoq davrlar mobaynida yaratilgan leksemalardir. Ma'lumki har qanday jamiyatda iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. Shu sababli iqtisodiyotga tegishli so'z va terminlar aniq, lo'nda va mantiqan asoslangan bo'lmog'i lozim. O'zbek iqtisodiy terminologiyasida milliylik va baynalmilallik masalasi murakkab masaladir, chunki u nafaqat o'zbek tilida, balki boshqa tillarda ham yetarlicha hal qilinmagan.

Ta'kidlash lozimki, nafaqat iqtisodiyot balki fan-texnika, ishlab chiqarishning xilma-xil soha va terminlar majmui, ya'ni yig'indisi terminologiya deb ataladi. Masalan, matematika terminologiyasi, tibbiyot terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasi va boshqalar.

Terminologik tizimlarning boyish yo'llari har xil bo'lib, uning asosiysi so'z yasashdir. So'z yasash, umuman, qanday usul, qanday vosita orqali amalga oshirilmasin, yangi so'z hosil qilishdan iboratdir.

Tilshunoslikda yangi so'z yasalishining o'rni haqida V.V.Vinogradov tomonidan aytilgan fikr ibratlidir. Unga ko'ra, atama yasalishi tilshunoslik fanida salmoqli ahamiyat kasb etar ekan, u leksikologiya - tilning lug'at tarkibi haqidagi fan bilan, o'z o'rnida grammatika bilan yaqinlashar ekan - shakl yasash ta'limoti hamda so'z birikmasi sintaksisi bilan ham bo'g'liqdir. Bunday nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlovchilar soni kun sayin ortib bormoqda.

Yangi so'z yasalishini ko'rib chiqish davomida, bu sohada tillarning tipologik o'xshashligi yaqqol ko'zga tashlanganidek, ularning farqlari ham shunchalik aniq-ravshan ko'rinib turishining guvohi bo'lish mumkin. Bu

fikrning tasdig'i sifatida beshta slavyan tillari ustida (V.A.Nikonov 1962, c. 103-116) va uchta german tillari ustida olib borilgan (V.V.Gurevich, 1970) tadqiqot natijalarini keltirish mumkin.

Yangi so'z yasashda asosan morfologik, morfologik-sintaktik, leksik-semantik va leksik-sintaktik usullar mavjud. Hozirgi zamon tillar leksikasini boyituvchi eng mahsuldor usullardan biri – bu so'z yasashning morfologik usulidir. Bu usul affikslar va so'z qo'shish yordamida amalga oshiriladi. Affiksasiya – bu o'zakka u yoki bu so'z yasovchi vositalarni qo'shish orqali so'z yasashdir. Affikslar yordamida so'z yasashning uch turi mavjud: suffikslar yordamida, prefikslar yordamida va suffiks-prefikslar yordamida. Shuningdek, affikslarsiz va so'z qo'shish orqali ham so'z yasash mumkin.

1. Suffikslar yordamida atama yasalishi: Iqtisodiyot sohasida, umuman olganda kasb-hunarga oid neologizmlar yasalishida -er, -r, -ment,

-ist suffikslari unumli hisoblanadi:

Masalan: Import + er = Importer - Import qiluvchi, Импортёр

Insure + r = Insurer – Sug'urtachi

Rent + er = Renter – Ijarachi

Pay + ment = Payment – To'lov

Special + ist = Specialist – Mutaxassis

Bu usulda yasalgan ayrim kasb-hunarga oid neologizmlar baynalminallashib bormoqda:

Masalan: Auditor – Auditor, Banker – Banker

Broker – Broker (dallol), Dealer – Diler (sotuvchi),

Investor (pul bilan ta'minlovchi shaxs), Manager – Menejer

2. Prefikslar yordamida atama yasalishi :

Old qo'shimchalarni qo'shish orqali atama yasash bo'lib, bu usulda neologizmlar yasalishi unchalik keng tarqalmagan:

Ensure – Kafolat berish

Income – Daromad

Inloading – Yuk tushirish

Prepayment – Muddatdan oldingi to'lov

3. Suffiks-prefikslar yordamida yangi so'z yasalishi:

yangi so'z yasashning bu turida o'zak-negizga bir vaqtning o'zida ham prefiks, ham suffiks qo'shish orqali yangi so'z yasaydi.

Incorporated – Uyushma, birlashma sifatida ro'yxatga olingan, tasdiqlangan

Indebtedness – Qarzdorlik, qarz summasi

Inloading – Yuk tushirish

Outstanding – To'lov qarzlari

Overpricing – Narxlarning oshirilishi

Underestimated price – Pasaytirilgan narx

Shuningdek, ingliz tilida ko'plab neologizmlar affiksiz yasalishi ham mumkin.

Affiksiz so'z yasashda tovushlar almashinuvi va so'z yasash vositasi sifatida urg'uni ko'chirish orqali amalga oshiriladi. Lekin, so'z yasashning bu usuli ko'p tarqalmagan. Affiksiz so'z yasash usuliga ingliz tilida keng tarqalgan konversiyani, ya'ni berilgan o'zakni so'z o'zgartirishning boshqa paradigmasiga ko'chirish orqali so'z yasash usulini kiritish mumkin. Bunda yangi so'zning sintaktik birikuvi o'zgargani sababli konversiya so'z yasashning morfologik-sintaktik usulini taqozo etadi. Konversiya yo'li bilan yasalgan so'zlarning ko'pchiligini fe'llar tashkil qiladi: cost – to cost, value – to value, trade – to trade va hokazo. Yuqorida keltirilgan misollardan fe'llar turli so'z turkumlaridan, ya'ni otlardan, sifatlardan va ravishlardan yasalishi mumkinligi ko'rinib turibdi. Konversiya yordamida boshqa so'z turkumlari, masalan, ot yasalishi mumkin: to waste – waste, to work – work, to use – useva hokazo.

So'z qo'shish (Kompozitsiya) – hind-yevropa tillari uchun umumiy bo'lgan morfologik so'z yasash turi bo'lib, unda yangi qo'shma yoki qisqartma so'z ikki yoki undan ortiq o'zak yoki so'zning qo'shilishidan yasaladi. Shuni

inobatga olish kerakki, qo‘shma so‘zlar ikkita to‘liq negizning qo‘shilishidan yasaladi:

Masalan, Bribetaker – poraxo‘r

Bookkeeper – Hisobchi buxgalter

Copyright – Mualliflik huquqi

Handbook – Ma’lumotnoma

Shunga o‘xshash iqtisodiyot sohasida ko‘plab ingliz tilidagi neologizmlar qo‘llanilib kelinmoqda, hatto ularning ayrimlari baynalminallashib bormoqda.

Masalan, “*businessman*” terminini olib ko‘radigan bo‘lsak “*business+man*“ ushbu termin kompozitsiya usulida yasalgan bo‘lib, “*ot+ot*“ shaklidagi komponentlardan yasalganligi ko‘rinib turibdi. “*Businessman*” terminining tarjimai “tadbirkor, ishbilarmon kishi “degan ma’nomalarini anglatadi. Ayni vaqda ushbu termining erkak tadbirkorga nisbatan qo‘lanishini takidlab o‘tishimiz lozim, chunki tadbirkor ayol kishiga nisbatan “*businesswoman*“ termini qo‘llaniladi. Ingliz tilidagi ushbu neologizmlarning yasalişhida jinsga ham alohida e’tibor berilganligi ko‘rinib turibdi. O‘zbek tilida ham bu jarayonga e’tibor beriladi, masalan: *kotib-erkak, kotiba-ayol, muallim-muallima* kabi.

Shuningdek, so‘z qo‘shish orqali ko‘plab iqtisodiy neologizmlar hozirgi kunda faol ishlatilmoqda:

Masalan: *Agrobusiness* – agrobiznes deganda qishloq xo‘jaligidagi biznes tushuniladi. Keng ma’nodda, bunga qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi biznes turlari kiradi.

Agrofirm – agrofirma - muayyan turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish va uni sanoat asosida qayta ishlaydigan korxonadan iborat.

Giperinflation – giperinflyatsiya - haddan tashqari inflyatsiya, narx-navoning shiddat bilan o‘sishi, pul qadrining g‘oyat tez pasayishi, pul topishga intilishning minimal darajaga kelishi bilan ifodalanadi.

Macroeconomy – makroiqtisodiyot - bu mamlakat miqyosida moddiy va nomoddiy ishlab chiqarish sohasini bir butun qilib birlashtirgan milliy va jahon xo‘jaligi darajasidagi iqtisodiyotdir.

Microeconomy – mikroiqtisodiyot - korxonalar, firmalar, ya’ni iqtisodiyotni birlamchi, boshlang‘ich bo‘g‘ini haqidagi iqtisodiyotdir. U cheklanganlik, tanlash va muqobil qiymat singari tushunchalar bilan, shuningdek ishlab chiqarish va iste’mollar bilan shug‘ullanadi. Hozirgacha iqtisodiyotga oid bo‘lgan darsliklar, o‘quv, uslubiy qo‘llanmalarining ko‘pchiligida noiqtisodiy o‘quv yurtlari, jumladan, pedagog kadrlar tayyorlash yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun iqtisodiy neologizmlar va tushunchalar ancha murakkab yoritilgan bo‘lib, ta’lim muassasalari spetsifikasiga kam e’tibor berilgan.

O‘zbek tiliga chet tillaridan o‘zlashgan yangi so‘zlar hozircha mamlakatimizda maxsus tadqiq etilganicha yo‘q. O.Jumaniyozovning “O‘zbek tilidagi german tillari o‘zlashmalari” nomli monografiyasida (1987) ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlar miqdori 150 ta deb ko‘rsatiladi. Agar bu kitobning yaratilganiga qariyb yigirma yil bo‘lganini, mustaqillikdan keyin mamlakatimizning xalqaro nufuzi yanada ortganini inobatga oladigan bo‘lsak, o‘zbek tiliga ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlar miqdori uch yuzdan ko‘proq, deb taxmin qilish mumkin. Chunki biz prof. N.G.Komlevning lug‘ati (2)ga tayangan holda tilimizga o‘zlashayotgan inglizcha so‘zlarni oddiy hisob-kitob qilganimizda bu miqdor hozircha uch yuzga yaqinlashib qoldi. Tilimizga o‘zlashgan bunday inglizcha so‘z va atamalarni quyidagicha mavzuiy guruh (MG)larga yoki leksik-semantik guruh (LSG)larga ajratish mumkin:

1. O‘qish-o‘qitish, maktab-maorif bilan bog‘liq inglizcha o‘zlashgan so‘zlar guruhi: *test, teyting, monitoring, standart, flomaster, kollej* kabilar.

2. Tibbiyot va veterinariyaga oid so‘zlar guruhi: *blokada, vilt, gaymorit, brusellez, vegetarian* kabilar.

3. Dengizchilik, kema va paroxodga oid so‘zlar guruhi: *yaxta, kater, tanker, trauler, tramp, bosman* kabilar.

4. Transportga oid soʻz va iboralar guruhi: *karter, bufer, nipel, aerobus, layner va boshqalar.*

5. Sanoat, qurilish va tipografiyaga oid soʻzlar guruhi: *ofset, kotej, vattman, trest, konsern, konveyer, veranda* kabilar.

6. Harbiy ish va harbiy texnikaga oid soʻzlar guruhi: *radar, michman, revolver* kabilar.

7. Idish, oʻrin-joy, makon va bino bilan bogʻliq tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar guruhi: *aerovokzal, aeroklub, bunker, park, skver, ofis, region, klub, konteyner, tunnel, avtopark, komfort, kemping* kabilar.

8. Sport hamda jismoniy tarbiya bilan bogʻliq soʻz va atamalar guruhi: *signal, ring, badminton, aut, butsi, boks, batterflyay, bokser, futbol, basketbol, voleybol, start, match, kross, gol, golkipper, nokaut, nokdaun, raund, rekord, gandbol, vaterpolo, ring, finish, trener, tennis, xokkey* kabilar.

9. Sanʼat, oʻyin, hordiq chiqarish, musiqaga oid soʻz va atamalar guruhi: *sheyk, kloun, fokstrot, tvist, jaz, dizayner, shou, myuzik-xoll* kabilar.

10. Ijtimoiy-siyosiy sohaga oid soʻzlar guruhi: *press-byuro, boykott, press-konferensiya, blokada, chartist, tred-yunion, yunker, chartizm, leyborist, konservator, kateder, kongressmen, spiker, senator* kabilar.

11. Texnikaga oid tushunchalarni ifodalovchi soʻzlar guruhi: *greyder, buldozer, antifriz, spidometr, eskalator, skriper, kombayn, chizel* kabilar.

12. Kompyuter texnologiyasiga oid soʻz va atamalar guruhi: *fayl, disket, display, printer, kompyuter, internet* kabilar.

13. Ilm-fanning turli sohalariga oid soʻz va atamalar guruhi: *detektiv, folklor, distributsiya, intervyu, deskriptiv, vatt, buldog, broyler, aysberg, kenguru, gorilla, rezistor, golfistrim, tranzistor, pamflet, yumorist, lazer* kabilar.

14. Kiyim-kechak, mato va attorlik buyumlarini ifodalovchi soʻzlar guruhi: *makintosh, linter, lint, pidjak, pijama, shampun, koverkot, velvet,*

15. Kulinariya va ichimlik nomlarini ifodalovchi soʻzlar guruhi: *viski, puding, kokteyl, servis, keks, rom, liver* kabilar.

16. Savdo ishlari va pul birliklarining nomlarini ifodalovchi soʻzlar guruhi: *menejer, menejment, investor, investisiya, bar, biznes, barmen, bankrot, sterling, monitoring, shilling, dollar, supermarket, eksport, marketing, barter, import* kabilar.

17. Turli kasb va toifadagi kishilarni ifodalovchi soʻz va atamalar guruhi: *jentlmen, fermer, reket, lider, reporter, kaskader* kabilar.

Bunday mavzuiy guruhlar sirasini yana davom ettirish mumkin. Eng muhimi, tilimiz lugʻaviy qatlamidan mustahkam oʻrin olayotgan ana shunday inglizcha, fransuzcha, italyancha, nemischa, ispancha oʻzlashma soʻzlarni toʻplash, ularning keyinchalik alohida-alohida, umumiy izohli lugʻatini yaratish, bunday oʻzlashmalarning imlosi, transliteratsiyasi muammolari bilan jiddiy shugʻullanish hozirgi mustaqillik davri oʻzbek tilshunosligining dolzarb muammolari qatoriga kiradi.

Jamiyatda ijtimoiy tuzumning oʻzgarishi fan va madaniyatning rivojlanishi, ilmiy-texnika taraqqiyotidagi yangiliklar u yoki bu tilning lugʻaviy qatlamida ham oʻz ifodasini topadi. Lugʻaviy qatlam tilning boshqa sathlariga nisbatan tez oʻzgarishga moyil boʻlgan struktural elementi sanaladi. Hayotda, ilm-fanda yuz beradigan voqea-hodisalar, yangiliklar toʻgʻrisidagi tushunchalarni ifodalovchi soʻz va iboralar tilda toʻxtovsiz ravishda shakllanib turadi. Yangi predmet va tushunchalarni til birliklari yordamida ifodalashda jamiyatning talabini qondirish uchun mavjud til materiallari negizida yangidan yangi soʻzlar, iboralar yasaladi. Natijada tilda mavjud soʻzlarning maʼnolari kengayadi, oʻzgaradi, ijtimoiy-tarixiy sharoitlar talabi bilan bir tildan ikkinchi bir tilga soʻzlar oʻtadi va yangi lugʻaviy qatlam vujudga kela boshlaydi.

III BOB. NEOLOGIZMLAR ATAMA SIFATIDA

3.1. Neologizmlar va terminologiya

Respublikamiz mustaqil deb e'lon qilingandan keyin, bu sohadagi ahvol butunlay o'zgardi. Tashqi iqtisodiy aloqalar yanada rivojlanib ketdi. Dunyoning juda ko'p mamlakatlari bilan xilma-xil aloqalarga keng yo'l ochildi. Bu omillar o'zbek tilida yangi-yangi terminlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu yangi terminlar sirasida iqtisodiy terminologik tizim ham o'ziga xos o'rinni egallab kelmoqda.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida terminlarni o'rganish, ularni tartibga solish, terminologik lug'atlar tuzish kabi qator chora-tadbirlar XX asrning 20-yillari o'rtalaridan boshlangan. Zero, ayrim leksikografik ishlarni hisoblamaganda, o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganish, hozirgi o'zbek tilshunosligining fan sifatida yuzaga kelishi ham shu davrdan boshlangan.

Albatta, terminlarni o'rganish ehtiyoji o'z-o'zidan kelib chiqqan emas, barcha bilim sohalari bo'yicha o'zbek tilida ta'lim berishni yo'lga qo'yish, bilim sohalarining sezilarli darajada rivojlana borishi, ilmiy tafakkur doirasining kengayishi, sobiq ittifoqdagi milliy tillar, jumladan, o'zbek tili lug'at tarkibining boyib borishi, binobarin, tilda terminlarning ko'payib borishi ularni (terminlarni) har tomonlama o'rganish va tartibga keltirishga turtki bo'lgan edi. Turli fan sohalariga mansub terminlar o'zbek tilshunosligida dastlab, ya'ni 20-30-yillarda, aksar hollarda sof amaliy maqsadlarni ko'zlab o'rganila boshlagan edi. To'g'ri, bu davrda terminning xususiyati, u yoki bu terminni qanday qo'llash ruscha-baynalmilal va arabcha, forsha yoki umumturkiy islohlarning afzalligi haqida qator maqolalar, ayrim risolalar e'lon qilingan.

Biroq bunday ishlar o'sha davrdagi keskin mafkuraviy, siyosiy kurash ruhi bilan hamohang, bog'liq bo'lganligi natijasida terminologiya, umuman, til masalalarining tilshunoslik nuqtai nazaridan hal etilishida qator xatolarni keltirib

chiqargan edi. Shunday bo'lsa-da, bu davrda terminlarni ko'proq amaliy jihatdan o'rganishga, fan sohasiga doir ayrim bir tili, ko'p tili terminologik lug'atlar yaratishga kirishildi.

O'zbek tilshunosligida turli fan sohasiga oid terminologik tizimlarni lingvistik jihatdan har tomonlama ham ilmiy, ham amaliy o'rganish urushdan keyin, asosan, 50-yillardan keyin izchilroq tus ola boshladi; termin va terminologiyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan maqolalar ayrim fan sohalari terminlarini lingvistik jihatdan tahlil etishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari yuzaga keldi, mukammal terminologik lug'atlar yaratishga kirishildi.

Hozirgi davrda o'zbek tilshunosligida turli fan sohalari terminlari jadallik bilan o'rganilmoqdaki, bu fan sohasining yanada rivojlanishi va ularning ishlab chiqarishga tatbiq etilishi darajasi bilan, binobarin, terminlarning rivojlanishi va boyib borishi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek tilshunosligida terminlarni atroflicha tadqiq etish bilan ularni tartibga solish va barqarorlashtirish singari amaliy masalalarga bag'ishlangan qirqa yaqin nomzodlik dissertatsiyalari yoqlandi, ko'plab monografiya va yuzlab ilmiy-nazariy maqolalar nashri e'lon qilindi, yuzga yaqin terminologik lug'atlar chop etildi. Terminshunoslardan S.Ibrohimov, U.Tursunov, O.Usmonov, N.Mamatov, S.Akobirov, R.Doniyorov, H.Jamolxonov, N.Qosimov, D.Bazarova, A.Qosimov, A. Madvaliev va boshqalar o'z ilmiy ishlari, amaliy tavsiyalari bilan o'zbek terminologiyasining rivojiga u yoki bu darajada hissa qo'shdilar va qo'shmoqdalar. So'nggi yillarda va bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish, termin qo'llashni tartibga solish davlat ahamiyatidagi masalaga aylandi. 1984-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Prezidiumi qoshidagi Respublika Muassasalararo terminologik komissiya (RMTK)ning tashkil etilishi, O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Respublika terminologiya qo'mitasining ish

boshlashi, terminologiya masalalariga bag'ishlab Respublika miqyosida bir necha ilmiy-amaliy, ilmiy-nazariy konferentsiyalarning o'tkazilganligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Muhimi shundaki, RMTK o'z faoliyati davomida "O'zbek tili terminologiyasi" nomli byulleten nashr etishni yo'lga qo'ydi, unda o'zbek tili terminologiyasining dolzarb masalalariga bag'ishlangan qator maqolalari bilan birga, har bir qo'llanuvchi terminlarning ro'yxati ham berib borildi.

Shuni qayd etish lozimki, Atamaqo'm RMTK an'anasini davom ettirib, ko'rsatilgan "Byulleten"ni nashr etishni yo'lga qo'ydi.

Ta'kidlash lozimki, Atamaqo'm keyingi yillarda o'zbek tili terminologiyasi tizimlarini barqarorlashtirish va terminlarni har xilligiga chek qo'yish borasida ancha-muncha ishlarni amalga oshirdi, boshqacha qilib aytganda, respublikamizda terminologiya masalalarini hal etish jonlantirib yuborildi. Xususan, uning tashabbusi bilan terminlarni nomlash tizmlari ishlab chiqildi va e'lon qilindi.

Atamaqo'm mana shu tizmlarilarga suyanib, ilm-fan, ishlab chiqarishning turli sohalariga oid terminologik lug'atlar seriyasiga chiqara boshladi.

1970-1980 yillarda o'zbek tili terminologik tizimlarini o'rganishga qiziqish ancha jonlandi. Buning boisi bor, albatta. Gap shundaki, ayni shu vaqtga kelib, terminlar borasida xilma-xil fikrlar bir qadar jiddiy tus ola boshladi. Buning ustiga 1970-1980-yillargacha terminologik masalalarga unchalik e'tibor berilmagan edi. Vaholanki o'zbek tilining terminologik tizimlarini o'rganmasdan turib, terminologiyaning umumnazariy masalalarini echish mumkin emas. Shu boisdan, o'zbek tilining turli soha terminologik tizimlari tadqiqotlar ob'ekti bo'la boshladi. Mana shunday ishlar jumlasiga H.Dadaboyev, A. Qosimov, H.Shamsiddinov,

A. Madvaliyev, N.Ikromova va boshqa olimlarning nomzodlik dissertatsiyalarini kiritish mumkin.

Yana shuni qayd etish lozimki, o‘zbek tilshunosligida U.Tursunov, S.Ibrohimov, Sh.Shoabdurahmonov, O.Usmonov, N.Mamatov, X.Jamolxonov, N.Qosimov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov kabi yuzlab olimlarning monografiya, dissertatsiya va lug‘atlari, ko‘plab maqolalari yuzaga kelgan. Shunga qaramay, yana qator terminologik tizimlar o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda. Ingliz, rus va o‘zbek tillari iqtisodiyot terminologiyasi qiyosiy planda o‘rganilganligi uchun o‘zbek tilining mazkur terminologik tizimi o‘zining to‘liq ifodasini topa olgani yo‘q.

O‘zbek tilining deyarli o‘rganilmagan terminologik tizimlardan iqtisodiyot terminologiyasidir. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o‘tib bormoqda. Jamiyatda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari joriy qilinmoqda. *Bozor iqtisodiyotiga xizmat qiluvchi neologizmlar yanada ko‘paymoqda.*

Bugungi kunda mamlakatimiz bank tizimi malakali mutaxassislar bilan ta‘minlanishi maqsadida o‘nlab oliy o‘quv yurtlari va ko‘plab kasb-hunar kollejlari «Bank ishi», «Moliya va kredit» yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda.

Ammo bugungi kunda ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zbek tilida nashr etilgan darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari neologizmlar lug‘ati va boshqa adabiyotlarining yetishmasligi asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Banklarning kelib chiqishi va rivojlanishi tarixi g‘arb mamlakatlari bilan bog‘liqligi sababli, bank faoliyatida qo‘llanilayotgan aksariyat neologizmlar va so‘zlar yevropa tillariga mansub, ularning ayrimlari xalq orasida keng tarqalgan va ko‘pchilikka tanish. Masalan: *aksiya, balans, byudjet, valyuta, inflyatsiya, ipoteka, kredit va lizing* kabilar. Ammo neologizmlarning ko‘pchiligi endi bank faoliyati bilan tanishayotgan talabalar va boshqa qiziquvchilarga notanish. Ularning ma‘nosini esa asosan rus tilida nashr etilgan adabiyotlardan topish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qonunining ijrosi bo‘lajak mutaxassislarni o‘zbek tilida o‘qitishni taqazo qilmoqda. Shu tufayli, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida fanlar o‘zbek tilida o‘qitilmoqda. Iqtisodiy fanlarni o‘zbek tilida o‘qitish shuni ko‘rsatadiki, hali bir qancha iqtisodiy atama tushuncha iboralar o‘zining ilmiy va nazariy izohi va tarjimasiga ega emas.

Ma’lumki, turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlar vakillari bir birlari bilan munosabatda bo‘lganlarida azaldan tarjimon yordamiga ehtiyoj sezganlar. Savdo sotiq ishlari, diplomatik munosabatlar va madaniy ma’rifiy aloqalar paytida hamma vaqt tarjimaga zarurat tug‘ilgan. Mamlakatlar o‘rtasida o‘rnatila boshlagan aloqa munosabatlar turli tuman xujjatlarning o‘zga xalqlar tillariga tarjima qilishni taqozo etgan.

Tarjima qardosh xalqlar tillari hamda xorijiy tillarni o‘rganishning muhim shartlaridan biri sifatida o‘quv jarayoning barcha bosqichlari bilan chambarchas bo‘g‘liq bo‘lib, u o‘quvchi va talabalarning o‘rganilayotgan tillarni emas, ona tili hodisalarni ham ongli ravishda o‘zlashtirishlariga ko‘maklashadi.

Butun hayot jabhalarini qamrab olgan taraqqiyot va ilmiy-texnik revolutsiya va u bilan bog‘liq bo‘lgan xalqaro hamkorlik va kutilayotgan demografik portlash va boshqa mavjud bo‘lgan muhim sivilizatsiyalar davlatlararo aloqani va xar xil tilda gaplashuvchi elat va millatlar jamiyatning rivojlanishiga olib keladi.

Turli tillarning semantik sestemalaridagi tafovut – bu shubhasiz dalil – ko‘plab qiyinchiliklarning manbai hisoblanadi.

Tarjima jarayoniga psixologiya sohasidan qaralganda unga ikkita aqliy jarayon: tushunish va nutqqa ko‘chirish; birinchidan agar tarjimon asliyat tili taklifini tushunsa, ya’ni o‘zining aqliy rejalashtirishiga ko‘ra ma’lumotni qisqartirsa undan keyin esa u rejalashtirgan tushunchani tarjima matnida kengaytiradi. Muammo shundaki bu aqliy jarayonlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rib bo‘lmaydi va bu rejalashtirish nima ekanligi hamda ma’lumotni qisqartirish va

kengaytirish qanday amalgam oshishi haqida tushunchaga ega emasmiz. Shuning uchun tarjima jarayoni boshqa yo‘l bilan ta’riflanishi kerak. Xalqlarning turli tabiiy, iqtisodiy – ijtimoiy – siyosiy sharoitida yashashlari natijasida ularning ongi, dunyoqarashi va alohida turli maxsus tushunchalar va normalar, prinsiplar qaror topadiki, bularning hammasi ham tilda aks etadi. Lekin, texnik taraqqiyot rivojlanishida boshqa bir davlatda paydo bo‘lgan tushunchalarni anglatuvchi neologizmlar boshqa bir tilda muqobil variantga ega emasligi ham mumkin.

Chunki, har bir tirik til tanaffuzsiz o‘zgarish va jadal taraqqiyotda bo‘ladi. Uning olg‘a siljuvchi komponentlaridan biri lug‘at hisoblanadi. Boshqa til jabhalariga qaraganda, hammadan oldin leksik katta dinamika orqali uning kengayishi va o‘zgarishi va rivojlanishi isbotlab berilgan.

Muqobil variantga ega bo‘lgan leksika – bu shunday so‘z yoki so‘z birikmasi til taraqqiyoti bosqichlarida paydo bo‘lgan narsalar, jarayonlar va borliqni anglatuvchi so‘zlar bo‘lib, ular tarjimada muqobil variantga ega emas. Muqobil variantga ega bo‘lmagan leksikalar sifatida bitiruv malakaviy ishimizning asosi bo‘lgan “iqtisodiy atama” larni misol keltirish mumkin.

Iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda asosan, o‘zbek tilida muqobil variantlarni topish yoki muqobili topilmasa, quyidagi tarjima usullaridan foydalaniladi:

1. Transkripsiya.
2. Transliteratsiya.
3. Kalkalash.
4. Tasviriy yoki ta’rifiy ifoda.

Transkripsiyalash - tarjima amaliyotining hozirgi vaqtda transkripsiyalash metodi diqqatga molik ravishda eng keng tarqalgan bo‘lib, u so‘zning orfografik shaklini berishga emas, balki fonetikasini bera oladi. O‘zbek va ingliz tillarning fonetik sestemasining muhim farqiga binoan, bunday uzatish

bir muncha sharti va bir qancha ingliz jaranglashining ayrim o'xshashlik va o'xshamasligini ishlab chiqaradi.

Umuman olganda tarjimon transkripsiyani ishlatganda albatta transliteratsiya elementlarini chetlab o'tib ketolmaydi. Hammasini ko'rib, umuman transliteratsiya va transkripsiya elementlari quyidagilarda o'z aksini topadi.

1. *Talaffuz qilinmaydigan tovushlar transliteratsiyasi.*

2. *Reduksiyalangan unlilar transliteratsiyasi.*

3. *Ikki marotablik undoshlarning transliteratsiyasi.*

4. *Mavjud bo'lgan ayrim variantlarning ya'ni, grafikdagi eng yaqinlari.*

Iqtisodiy neologizmlarni *transkripsiya orqali* tarjima qilishga misollar.

Agency – Agentlik, Antique – Antik (qadimiy narsa), Auditor – Auditor, Audit – Audit (taftish), Attestation – Attestatsiya, Cargo (cargo insurance) – Kargo (yukni sug'urtalash), Clause – Klauzula– (qonun, shartnoma, vasiyatnoma qismi, sharti, tanbehi), Consignor – Konsignant (dallollar orqali chegaradan o'tadigan tovarlarning egasi) va boshqalar.

Transliteratsiyalash. Bunday nomlanishiga sabab, tarjima harakatida bu usullarni ishlatishda uning o'rniga tovush harakati yoki tarjima qilinayotgan chet tilidan ona tilidagi so'zlarning mazmunini grafik shaklni berish orqali yuzaga keladi. Biroq bu usul tarjimasiz ko'rinadiganidek, lekin dalillarga asoslansak, bu yerda bir-birini o'rnini bosish, uni jonlantirish uchun muhim zamin sifatida faqat tarjimani amalga oshirish uchun qo'llaniladi. O'rnini bosuvchi so'z tarjima qilinayotgan tilning dalili bo'lib qoladi va shunga binoan chet tilida ham tashqi ko'rinishlari bir xil ekvivalent sifatida ishlatiladi.

Umuman olganda, bu yo'l tabiiy til muammolaridagi doirada keng tarqalgan va qadimgilardan biri bo'lsa-da, u hozirda ham muhim ahamiyatga ega ekanligini davom ettirmoqda. Haqiqatdan ham, bu usuldan foydalanish hozirgi paytda qator ko'plab chegaralar bilan bog'liq (til siyosati, urf – odatlari va boshqalar).

Transliteratsiya metodi o‘zbekcha harflar bilan inglizcha so‘zni tashkil qiluvchi harflarni berish metodidir. Masalan: Dotatsiya – Dotation - (tashkilot, korxonalariga davlat tomonidan beriladigan yordam puli, moddiy yordam, qo‘shimcha to‘lov. Asosan zararni qoplash va boshqa maqsadlar uchun ishlatiladi).

Diler – Dealer – o‘z hisobiga birja yoki savdo vositachiligi bilan shug‘ullanuvchi ishbilarmon. Transliteratsiya XX asr oxirigacha tarjimonlar tomonidan keng qo‘llanilgan. Bu uchun tarjimonga ingliz tili talaffuzini bilish shart emas edi, u ko‘rish qobiliyati orqali chegaralanishi mumkin edi. Hozirgi vaqtda transliteratsiya deyarli barcha tarjimonlar tomonidan ishlatilayapti.

Kalkalash. Xususan, kalkalash tarjima qilish usullari ichida alohida o‘rin tutgan holda, u to‘la tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan leksikalar o‘rtasidagi o‘rinni egallaydi. Kalkalashning o‘zgarmasligi ichki formasining o‘zgarmagan holda saqlanganligida namoyon bo‘ladi. Kalkalashda ikki til o‘rtasida to‘g‘ri keladigan ichki tomonlama o‘zaro tillarda bo‘lgan elementlar leksik birliklarga tayanadi. O‘sha leksik birliklar qurilish materiali sifatida ishlatilib, o‘zlashtirilgan ichki shaklni yoki tarjima qilinayotgan so‘zni tiklaydi. Kalkalash – asliyatdagi leksik birliklarni tarjima tilidagi leksik birlik bilan almashtirishni ko‘zda tutadi va tarjima tilida yangi so‘z va ibora yasashiga olib keladi: superpower - hukumron davlat; mass culture – ommaviy madaniyat; green revolution - yashil revolutsiya; transnational– transmilliy. Yoki so‘zma-so‘z tarjimaga qarindosh ekvivalentni yasash usuli sifatida – ekvivalent butunligi uni tashkil qilgan qismlardan ekvivalentlarning oddiy qo‘shish orqali yasaladi. Shundan kelib chiqadiki kalkalash ko‘pincha qo‘shma atama so‘zlarda uchraydi.

Masalan, “Copyright “ so‘zi ikki qism “copy” va “right“ so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “copy” ya‘ni nusxa, (mualliflik) “right “ – huquq ma‘nolarini beradi. Bu so‘zlarning ma‘nosini umumlashtirish orqali “Copyright“ mualliflik huquqi ma‘nosini ifodalaydi.

Kalkalash misollar o‘zbek tili mazmunini vositalar orqali yoki so‘z birikmasi morfologik shaklining qaytadan tiklanishidir.

Masalan, “Foreign capital” – Xorijiy mablag‘.

Shuningdek neologizmlarni tarjima qilishda “eksplikatsiya”, ya’ni izohli tarjimadan ham keng foydalaniladi. Bunda aslyatdagi leksik birlik tarjima tiliga tushuntirish, izohlash orqali o‘g‘riladi va odatda ekvivalentsiz leksikalar tarjimasida keng foydalaniladi: *Avtarkiya* - (grek. autarkeia- o‘z-o‘ziga yetarli) - bu o‘zini o‘zi mahsulotlar bilan ta’minlab, boshqalar bilan kamdan-kam aloqaga kirishishdir. Asosan natural xo‘jalikka xosdir.

Auction - (lat. auction) - kimochdi savdosi, ochiq savdo qilish. Bu savdo davomida mahsulotni eng yuqori narx bo‘yicha ko‘targan xaridor sotib oladi.

Demping - (ing. dumping-tashlash) - bozorni egallash va undan raqobatchilarni siqib chiqarish maqsadida mahsulotlarni sotuv narxiga nisbatan arzonga sotish.

Asrimizning 1930-40-yillari va 1950-yillarning birinchi yarmida o‘zbek iqtisodiyoti terminologiyasi, asosan, rus tilidan tarjima qilingan iqtisod darsliklari va qo‘llanmalarining tili asosida tarkib topa boshladi. Shu bilan birga, ushbu soha terminologiyasida yuzaga kelgan ba’zi kamchilik va nuqsonlar ham yuqorida aytib o‘tilgan barqarorlikka mos ravishda tuzatila bordi.

3.2. Ayrim sohaviy neologizmlar

1950-yillarning ikkinchi yarmidan iqtisodiyot terminologiyasi rivojlanishida yangi davr boshlandi. Bu davr iqtisod fani bilimdonlarining iqtisod fanini tartibga solish borasidagi ishlarini kuchaytirish, o'zbek tili so'z yasash vositalarining faollashuvi, yangiyangi-yangi terminlar yasalishi va iste'molga kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Albatta, bu rivojlanish jarayonining o'ziga xos sabablari bor. Xususan, iqtisod sohasida ona tili bazasida mustaqil ravishda darslik, qo'llanma va lug'atlar yarata oladigan, soha terminlarini tartibga solish bilan shug'ullana oladigan mahalliy kadrlarni etishtirish muhim vazifa bo'lib qoldi. Bunday chora-tadbirlar tufayli O'zbekistonda iqtisod fani va iqtisodiyot terminologiyasini tartibga solish, iqtisod fanini o'qitish sifatini oshirish imkoniyati yaratildi.

Umuman iqtisodiy so'z va terminlar uzoq davrlar mobaynida yaratilgan leksemalardir. Ma'lumki har qanday jamiyatda iqtisodiyot muhim rol o'ynaydi. Shu sababli iqtisodiyotga tegishli so'z va terminlar aniq, lo'nda va mantiqan asoslangan bo'lmog'i lozim.

O'zbek iqtisodiy terminologiyasida milliylik va baynalmilallik masalasi murakkab masaladir, chunki u nafaqat o'zbek tilida balki boshqa tillarda ham etarlicha hal qilinmagan.

Ma'lumki, termini tilga qabul qilish murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki o'zbek tilining tovush tizimi va grammatik qurilishi termin qo'llanilayotgan tilnikidan keskin farq qiladi. Shu bilan birga kirib kelayotgan so'z yoki termin aynan o'z ma'nosida boshqa tilda qo'llanilmasligi mumkin. Ba'zan esa terminning kirib kelish jarayonida ma'no o'zgarishlar ro'y beradi. Ma'lumki, terminlar bir tildan ikkinchi tilga o'tayotganida bir qator xususiyatga ko'ra farq qiladi.

Xususan, fonetik yoki tovush jihatidan qabul qilinayotgan iqtisodiy so'z yoki termin o'zbek tilining tovushlariga mos bo'lishi lozim. Mos kelmaydigan

tovushlar esa tushib qoladi yoki almashinadi. O‘zbek tiliga kirib kelgan va kelayotgan iqtisodiy so‘zlarning asosiy qismini rus va yevropa tillarning leksikasi tashkil etadi.

Rus tilidan kirib kelayotgan so‘z va terminlar og‘zaki va yozma nutq orqali o‘zlashtirilmoqda. Rus tilidan o‘zbek tiliga o‘tgan iqtisodiy so‘zlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. XIX asrning ikkinchi yarmidan XX asrgacha.
2. XX asrning boshidan 90-yillargacha.

Mustaqillikdan so‘ng rus tilidan iqtisodiy so‘zlarni o‘zlashtirishda qonuniy va ongli yo‘l tanlandi. Mustaqillikka qadar ko‘pgina iqtisodiy so‘zlarning rus tilidagi va o‘zbek tilidagi variantlari parallel qo‘llanilgan edi:

Soliq - nalog

Iqtisodiyot - ekonomika

Foiz - protsent

Mustaqillikdan so‘ng o‘zbek iqtisodiy terminologiyasida o‘ziga xos yo‘l tutildi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Ruscha baynalmilal iqtisodiy terminlar o‘zbek tilida aynan tarjimasiz qo‘llanilmoqda: *valyuta, dollar, kredit, banknot, akkreditiv, lizing, forfeting, libor* va boshqalar.

2. Ruscha baynalmilal iqtisodiy terminlarning ba‘zilari tarjima qilindi yoki uning o‘zbek tilidagi muqobillari qo‘llanila boshlandi: *anketa-so‘rovnoma, defitsit-taqchil, biznesmen-bizneschi, litsenziya-ruhsatnoma, kapital-mablag‘, reforma - islohot.*

Umuman baynalmilal iqtisodiy so‘zlarni o‘zbek tiliga qabul qilishda ko‘p jihatlarni e‘tiborga olmoq lozim. Iqtisodiy termin o‘zbek tiliga kirib kelayotganda uning quyidagi jihatlari e‘tibor berish kerak bo‘ladi: terminning o‘zbek tilini tovush tizimiga mosligiga; uning o‘zbekcha muqobili bor-yo‘qligiga; kalka yoki tarjima qilish zaruriyatiga; iqtisodiy terminning mazmuniga; uning sodda va ravonligiga; mohiyatiga va o‘ng‘ayligiga.

Boshqa tillardan o'zbek tiliga kirib kelayotgan iqtisodiy terminlar dastlab mutaxassislar va atamaqo'm muhokamasidan o'tmog'i, so'ngra Oliy Majlisning tegishli qo'mitasidan tasdiqlanmog'i lozim. Ana shundagina bunday iqtisodiy terminlar qonuniy kuchga kiradi va ularni bimalol qo'llash mumkin.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida tilimizga ko'pdan-ko'p terminlar (neologizmlar) kirib kelmoqda. Bularning muayyan qismi ona tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchalashtirib berilmoqda, ma'lum qismi esa baynalmilal o'zlashma sifatida ishlatilmoqda. Iqtisodiyot terminlarining o'zbek tilida qo'llanilishida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin:

1. Ko'plab terminlar tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchalashtirilgan. Bunda bir guruh terminlar o'zbek tilidagi tayyor muqobillari bilan berilmoqda, ma'lum qismi esa tarjima qilinib ishlatilmoqda, bir qismi esa o'zbek tili qonun-qoidalari asosida yasalmogda. Masalan: *auksion - kimoshdi, makler - dallol, kommersant - tijoratchi, komissionnie voznagrajdeniya - vositachilik haqi, ekonomika - iqtisodiyot, chek na predyavitelya - oq chek, shaxssiz chek, aksioner-aktsiyador, biznesmen-bizneschi* va hokazolar.

2. Yana bir usul dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ishlatilib kelinayotgan baynalmilal terminlarning o'zbek tiliga ham o'z holicha o'zlashtirilishidir. Bu o'rinda shuni ta'kidlamoq zarurki, yangidan kirib kelayotgan terminlarning hammasiga ham o'zbekcha muqobilini topish qiyin. Shuning uchun ularning asosiy qismi dunyoning ko'pchilik mamlakatlari tillarida bir shaklda o'z asl holicha ishlatiladi va bu qo'llanish dunyo bizneschilari axborot almashinuvi uchun qulay. Masalan: *korrupsiya, kredit, eksport, grant, auditor, avizo, valyuta, lizing, menedjer, litsenziya, biznesmen, norezident*

3. Terminlarning ma'lum qismi turli muqobillarda har xil qo'llanildi. Chunonchi, rus tilidagi "aksionernoje obshchestvo" termini o'zbek tilida *aksionerlik jamiyati, hissadorlik jamiyati, aksioner jamiyat* kabi variantlarda, "barter" termini *mol ayirboshlash, tovar ayriboshlash, muvozanat, barter*

variantlarida, “broker” termini *broker, dallol, kelishtiruvchi, bitishtiruvchi, vositachi variantlarida, “demping” termini esa demping, arzonga sotish, narxni tanlash, molni chetga juda past narxda sotish* kabi variantlari ishlatilyapti. Albatta, bunday har xilliklar soha mutaxassislarini chalkashtiradi, axborot almashinuvini qiyinlashtiradi. Shuning uchun terminologiyadagi asosiy printsip - “bir tushunchaga bitta termin” ishlatilishiga erishish eng dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Yuqorida aytilganlardan ma’lumki, iqtisodiyot terminologiyasida bir yo‘la bir necha muammolar kelib chiqdi. Uning echimini iqtisodchi va tilshunos olimlar, mutaxassislar, atamashunoslar bilan birgalikdagina topish mumkin. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo‘mitasi buni hisobga olib, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent moliya instituti hamda O‘zFA Tilshunoslik instituti bilan hamkorlikda 1996-yil 30-oktyabrda “Iqtisodiyot terminlarini tartibga solish masalalari”ga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferentsiya o‘tkazdi. Unda oliy o‘quv yurtlari iqtisodiyot kafedralari va iqtisodiyot ilmiy mutaxassislari xodimlari, tilshunoslar, atamashunoslar ishtirok etdilar. Atamashunoslik qo‘mitasi xodimlari iqtisodiyot terminologiyasidagi variantlilik-bir tushunchani o‘zbekchada turli muqobillarda ifoda etish holatlarini to‘plab chiqish va ularni “Bozor iqtisodiyotiga oid ayrim terminlarning qo‘llanishi” jadvali holiga keltirdi.

Unga o‘zbek tilida turli shakllarda qo‘llanayotgan baynalmilal terminlargina kiritildi. Mazkur jadval ko‘paytirilib, konferentsiyadan ancha oldin iqtisodiyotga oid oliy o‘quv yurtlari, ilmiy muassasalar mutaxassislariga tarqatildi. Jadvalda qo‘llanayotgan muqobillardan qay birini tanlash mumkinligi haqida Atamaqo‘mning dastlabki tavsiyasi berilgan bo‘lib, olimlar va mutaxassislar takliflari uchun maxsus ustun ochiq qoldirilgan edi. Ilmiy-amaliy konferentsiyada oldindan takliflar olinib, o‘rganildi va oxirgi tavsiya shakllandi.

Konferensiya davomida bu tavsiyalar asosan ma’qullandi, bildirilgan fikr-mulohazalar asosida yanada takomillashtirildi. Ma’lumki, yangi tahrirdagi

“Davlat tili haqidagi” Qonunning (1995-yil 21-dekabr) 7-moddasida “Yangi ilmiy asoslangan neologizmlar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi” deyilgan.

Atamaqo‘m ana shu qoidaga amal qilib, ilmiy-amaliy konferentsiyada ma‘qullangan iqtisodiyotga oid bir guruh terminlarni amalga joriy etishga ijozat so‘rab Oliy Majlisning Fan, ta‘lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasiga murojaat etdi. Oliy Majlis Fan, ta‘lim, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasining “O‘zbek tiliga yangi neologizmlarni joriy etish haqida” 1996-yil 24-dekabrda qarorida shunday deyiladi: “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamashunoslik qo‘mitasi tomonidan kiritilgan “Bozor iqtisodiyotiga oid ayrim terminlarni qo‘llanish jadvali” qo‘mita a‘zolari va qo‘mita qoshidagi o‘zbek tiliga yangi neologizmlarni joriy etish bo‘yicha ekspert guruhi a‘zolari tomonidan bildirilgan taklif va mulohazalarni (ilovaga muvofiq) inobatga olgan holda ma‘qullansin va uni amaliyotga joriy etishga rozilik berilsin”. Davlat tili haqidagi Qonunga asosan Oliy Majlis qo‘mitasi tomonidan ma‘qullanib, joriy etilayotgan ushbu neologizmlarga matbuotda, ommaviy axborot vositalarida, turli vazirlik, qo‘mita va idoralarda ish yuritishda amal qilinishi shart.

Mamlakatimizda bozor iqtisodiyoti mexanizmlarining takomillashuvi natijasida xususiy mulkchilikning barcha shakllari rivojlanib, tadbirkorlik faoliyatiga keng yo‘l ochilmoqda, natjada chet davlatlar bilan oldi-sotdi ya‘ni export-import ishlari amalga oshirilmoqda bu borada esa chet tilini bilish juda muhim, xususan iqtisodiy neologizmlarni tushunish har birimizga kerak. Bu borada Respublikamiz Prezidenti *I.Karimovning* nutqini esga olaylik:

“Mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga jahon andozalari darajasi bilim olgan zakovatli, har

tomonlarni barkamol, dunyoqarashi keng milliy kadrlarni tayyorlashda chet tilining xizmati katta”¹⁶.

Ilmiy-texnik matnlardagi neologizmlar tarjimasida kitoblar, ensiklopediya, gazeta, jurnal va boshqalar to‘liq matn mag‘zi va so‘halariga javob berish kerak. U bilim olishga to‘liq javob berish kerak. Matn mazmun mohiyati urg‘ulari tarjimada asosiy ro‘l o‘ynaydi ya‘ni uni matn mag‘zini ochib berishga qaratiladi.

Ilmiy-texnik neologizmlarni quyidagilar tashkil etadi:

1. Ko‘plab ma‘lum bir sohani ifodalovchi umumiste‘moldagi so‘zlarning ishlatilishidir. Bunday holatda atama bu so‘zning ma‘lum ma‘nolaridan biri hisoblanadi. Masalan, *change* so‘zi *o‘zgartirmoq, ayirboshlamoq, chaqa, mayda pul* ma‘nolarida atama bo‘lib ishlatiladi.

2. Umumtexnik neologizmlar ma‘lum bir fan texnika sohasiga oid neologizmlar, masalan: *Account* – hisob-kitob, *Accountance balance* – buxgalteriya balansi, *Advice* – bildirish, xabarnoma.

Advice so‘zi - *bildirish, xabarnoma* ma‘nolarini anglatishdan tashqari *maslahat* ma‘nosini ham anglatadi.

3. Bir sohani ifodalovchi maxsus neologizmlar. Masalan, *bank of circulation* – emissiya banki – *эмиссионный банк*, *bank of deposit* – depozit bank – *депозитный банк*, *bank of discount* – hisob banki – *учетный банк*. Bunday holatlarda bu neologizmlar bir sohaga ya‘ni bank sohasiga oid maxsus so‘zlardir.

4. Zamonaviy texnik neologizmlarda bir necha sohalarda turli ma‘nolar anglatuvchi neologizmlarga duch kelishimiz mumkin. Masalan, *current density* – tok zichligi, oqim zichligini ifodalasa, *current price* – joriy baho kabi turli sohaga oid tushunchalarni ifodalaydi. Neologizmlarning o‘ziga xos xususiyatlari bu aniq bir tushuncha, jarayon yoki xodisani ifodalab, bir ma‘nolikka intilishdir.

Ilmiy-texnik matnlarda keng tarqalgan neologizmlar:

¹⁶ Karimov I. “Barkamol avlod orzusi”, T.: “Ma‘naviyat”. 2000, 91-bet

A claim for money – pul da'vosi
Abandonment of goods – tovarlarni qoldirish
After-payment – keyingi, qo'shimcha to'lov
Balance in hand – naqd pul
Balance of payment – to'lov balansi
Bank of deposit – depozit bank
Carry out – bajarmoq
Bank certificate – bank sertifikati
Bank confirmation - bank tasdig'i
Calculation number – hisob-kitob raqami
Calendar year - kalendar yili год
Credit card – kredit kartasi
Draft budget– byudjet loyihasi
Export duty – eksport boji
Entry visa – kirish vizasi
Economic growth – iqtisodiy o'sish
Foreign market – tashqi bozor
False bankrupt – soxta bankrotlik
Financial statements – moliyaviy hisobot
Basic price – asosiy narx
Briefing aids – ko'rsatma
Carrying capacity –yuk ko'tarish qobiliyati
Clearing Bank – hisob-kitob banki
Carrying charge – saqlash qiymati
Handling capacity – o'tkazish qobiliyati
Lending bank – kreditor bank –
Carbonised cargo – qutilardagi yuk
Packed goods – o'ralgan yuk
Damaged cargo – shikastlangan yuk

Directed cargo – manzilga ega yuk

Deferred payment – muddati uzaytirilgan to‘lov

Declared income, profit – bayon etilgan daromad

Finished goods – tayyor mahsulot

Retained earnings – taqsimlanmagan foyda

Hamisha qo‘llanadigan so‘zlar ular ko‘p ma‘noni yoki ilmiy texnikaviy har xil buyumlar ma‘nosini matnda almashtirishga e‘tibor qaratish lozim. Ayrim iqtisodiy terminlarga qaraydigan bo‘lsak, masalan: inglizcha “balance” termini “*muvozanat*” ma‘nosini bildiradi. “Balance of payment” so‘z birikmasini “to‘lov balansi” deb tarjima qilinsa, “balance in hand” so‘z birikmasi “*naqd pul*” deb tarjima qilinadi.

Bu so‘zlar matnda kelishiga qarab, turlicha ma‘nolarni anglatishi mumkin. Masalan: balance of an account so‘z birikmasi “*hisobdagi qoldiq*” va “balance in one’s favour” - *kimningdir foydasiga qoldiq* ma‘nosini bildiradi.

Bunday ma‘noni bildiruvchi so‘zlar ma‘no va mohiyati jihatidan matnda kelishiga tarjimon to‘g‘ri tarjima qilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Shuning uchun matnning mavzusi maqsadi, mohiyati va nimani anglatishiga qarab tarjima qilish kerak. Ilmiy va ilmiy texnik matnlar tarjimasini ko‘p chiligi umumiy tayyor qo‘llaniladigan so‘zlardan foydalanish ilmiy adabiyotda qo‘llaniladi.

Ilmiy va ilmiy texnikaviy so‘z tarjimasini maxsus zaxirasi bo‘lgani bilan asl so‘z mohiyatini chiqarib olish uchun atalishdan tashqari tarjimon lug‘atdan to‘liq foydalanishi kerak. Tarjimada aynan ilmiy belgilangan so‘zlardan tashqari so‘zlar so‘zma so‘z tarjima qilinmasligi ham mumkin. Ammo matn mag‘zi tarjima qilinayotganda tilni mazmunini ifodalab berish kerak.

Tarjimani ilmiy matn mazmunini asosiy vazifasidan biri aniq variantga tushib olishdir.

1-variant. Milliy til so‘zlari.

2-variant. Kerak bo‘lgan o‘rindosh so‘zlar.

3-variant. Mazmun mohiyati jihatidan tushunishi qiyin qisqa soʻzlar

Umuman biz ilmiy- texnikaviy matnlar keng maʼno koʻrinishini ilmiy, ilmiy texnikaviy matnni oʻz nomi bilan rang-barang tushunishimiz mumkin. Umumiy matn har xil koʻrinishdagi soʻz birikmalari va katta-kichik boʻlaklardan har xil neologizmlardan iborat boʻlishi mumkin.

XULOSA

O‘zbek tili leksikasi juda boy. Unda serqirra ma’noga ega bo‘lgan polisemantik va ma’nodosh, zid ma’noli va shakldosh, emotsioanal-ekspressiv bo‘yoqdor so‘zlar borki, ular nutqni obrazli va jozibador etishga xizmat qiladi. Ona tilimizning imkoniyatlarida foydalanish, go‘zal badiiy tasvirlar yaratish ijodkoning so‘z qo‘llash mahoratiga bog‘liq.

Ona tilini o‘rganish nihoyatda dolzarb vazifa. Inson tafakkurining erishgan eng yuksak yutuqlari, eng chuqur bilimlari va g‘oyat otashin hislar, agar ular so‘z vositasi bilan aniq va ravshan ifoda qilinmasa, odamlar uchun noma’lumligicha qolaveradi. Keyingi o‘n yilliklar mobaynida barcha mamlakatlar singari bizning yurtimizda ham tarjimachilik faoliyati izchil rivojlanib kelmoqda . Unga hamohang tarzda tarjimalarning sifati ham asta sekin yaxshilanmoqda . Bunga sezilarli turtki berayotgan omillaradan biri – tarjima nazaryasining so‘ngi paytlarda jiddiy ravishda oldinga siljib borayotganligidadir.

Tarjima nazaryasi o‘z tadqiqotlarini boshqa qator an’anaviy filologik, ayniqsa, lingvistik tadqiqod metodlaridan o‘rni bilan foydalangani holda , ko‘proq siyosiy solishtirma metod bilan chambarchas bog‘liqlikda qo‘llaniladigan semantik-uslubiy metod asosida olib boradi. Shu bilan birga asliyat va tarjima tillari lisoniy vositalarni batafsil tahlil qilish zaruriyati lingvistik tadqiqodning boshqa ayrim maxsus metodlaridan ham, jumladan, komponentlar tahlil qilish metodidan foydalanishni taqozo etadi. Bunday paytda qiyoslanayotgan ikki til birliklarining turli kontekstlarda qo‘shimcha ma’no belgilarini kasb etish holatlari tahlil etiladi . Bir-birlarini to‘ldirishga xizmat qiladigan mazkur metodlar amalga oshirilgan tarjimalarni har jihatdan puxta va xolis baholash imkoniyatini beradi.

Fan va texnikaning shiddat bilan rivojlanishi iqtisodiyot sohasiga ham o'z tasirini o'tkazmasdan qolmaydi, buning natijasida yana bir qancha iqtisodiyot sohasida yangi neologizmlarni yuzaga kelishiga olib keladi.

Bakalavr o'z mutaxassislik fanlari bilan bir qatorda iqtisod tili va uslubi, iqtisodiy terminologiya va atamashunoslik, ish yuritish va hujjatchilik to'g'risida mukammal bilimga ega bo'lmasdan turib, o'z fikrini iqtisod sohasiga qo'yiladigan talablar asosida aniq va ravshan ifoda eta olmaydi. Shunga ko'ra bo'lajak iqtisodchilar iqtisod tilining o'ziga xos xususiyatlaridan puxta xabardor bo'lmog'i lozim. Bakalavrlar o'z ixtisosligidan kelib chiqqan holda O'zbekiston iqtisodini yuksaltirishga, uni jahonda munosib o'rin egallashiga hissa qo'shadi, chet mamlakatlarda va yurtimizda davlatimiz manfaatini himoya qiladi, kuch-qudratini namoyish etadi.

Bitiruv malakaviy ishimizda o'zbek tilshunosligida hali atroflicha o'rganilmagan terminalogik xarakterdagi iqtisodiy neologizmlarni, ularning struktural tuzilishi va semantik – etimologik aspektlarni tadqiq qilinishini mavzu qilib olganligimiz sababli ishimizning birinchi bobida neologizmlarning mohiyati, turli aspektlardagi klassifikatsiyalari, atama-so'z o'rtasidagi farqlarga, ularning kelib chiqish manbalariga alohida to'xtaldik. Neologizmlar bir yoki bir necha so'zdan iborat bo'lib tilning lug'at tarkibida fan va texnikaga oid yagona tushunchalarni ifodalaydigan, ko'chma ma'noda ishlatilmaydigan, tilda sinonim variantga ega bo'lmagan va ko'pincha baynalminallashgan til vositalari sifatida kirgan.

Til tarixini o'rganar ekanmiz, biz amin bo'lamizki, ko'plab so'zlar o'zgarishiga qaramay, asliyatning tub ma'nosini saqlab qolgan, lekin ayrim holatlarda bu narsa umuman yo'qolib ketgan. Shunday qilib, ingliz tilidagi iqtisodiy neologizmlarni o'zbek tiliga tarjima qilishda ikki bosqichda o'tiladi.

1. Yangi so'z ma'nosini aniqlash (qachonki tarjimon nashrdan chiqqan inglizcha iqtisodiy terminologik lug'atlarga murojat qiladi, yoki matn yo so'zning tarkibiga ko'ra uning mazmunini aniqlash).

2. O‘zbek tilidagi vositalar orqali iqtisodiy neologizmlarning mazmunini berish, aynan; transkripsiya, transleteratsiya, kalkalash va tasviriy tarjima usullari orqali amalga oshiriladi. Iqtisodiy neologizmlarni tarjima qilishda qaysi bosqichdan foydalanish xususiyatiga to‘xtalsak, bu ko‘pchilik subekt faktorlarga bog‘liq. Masalan tarjimoning shaxsiga, uning intellektiga, uning qobiliyati va tarjimasiga, iqtisodiyot sohasidan xabardorligiga, abstrakt – mavhum tushunchalar bilan ishlashga tarjima qilish jarayoniga va matn uslubiga ham bog‘liq.

Talabalar va iqtisodiyot ilmiga qiziquvchi kitobxonlar uchun iqtisodiyot sohasiga oid mukammal izohli va tajima lug‘atarini tuzib chiqish kerak. Zero, hayotimizning biror-bir sohasi iqtisodiyotchalik keng jamoatchilikning diqqat markazida turmaydi va qiziqish uyg‘otmaydi. Bu, albatta, tabiiy hol. Bozor iqtisodiyoti bu faqat iqtisodiy jarayon bo‘lib qolmasdan, ayni vaqtda u hayotiy voqelikdir. Biroq iqtisodiyot fani bo‘yicha o‘zbek tilida nashr etilgan manbalarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida o‘zbek iqtisodiyot terminologiyasida ham, boshqa sohalar terminologik tizimlarida bo‘lgani kabi, qator kamchilik va nuqsonlar mavjud ekanligi ayon bo‘ldi. Ayni shunday holat iqtisodiy terminlarni tartibga solish masalalari bilan alohida shug‘ullanish vazifasini keltirib chiqaradi.

Terminlarni tartibga solish amaliyotida u yoki bu lug‘aviy birlikni termin qatoriga kiritishda odatda quyidagi talablardan kelib chiqiladi: u muayyan tizim tarkibiga kirishi va shu tizim doirasida yagona ma’no bildirishi, tartibga tushish belgilariga ega bo‘lishi, sinonim (dublet)larga ega emasligi, qisqa, eslash va talaffuzi qulayligi kabi talablarga javob berishi lozim. Albatta, barcha terminlar mazkur talablarga javob berganda, terminologiyani tartibga solish degan gap ham ko‘ndalang bo‘lmas edi. Biroq amaliyotda ish hali poyoniga etgan emas. Yuqorida aytganimizdek, o‘zbek iqtisodiyot terminologiyasi qator nuqsonlarga ega: lug‘aviy va grammatik sinonimiyaning keng tarqalganligi, terminlar imlosidagi har xillik kabilar ana shunday nuqsonlardandir.

Terminologiya masalalariga bag'ishlangan barcha ishlarda sinonimiya terminologiyaning jiddiy nuqsoni deb qaralgan. Bozor iqtisodiyotining hozirgacha o'z muqobiliga ega emasligini rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatmoqda. Hozir xalq orasida bozor iqtisodiyotiga, ayniqsa tadbirkorlik va uning shakllariga qiziqish katta. O'zbekiston Respublikasi ham ana shunday taraqqiyot yo'lini tanladi va undan dadil odimlamoqda.

Ta'kidlash kerakki, bu iqtisodiyot pirovardida inson manfaatlariga xizmat qilish yotadi. Uning maqsadi iqtisodiyotning ijtimoiy jihatlarini kuchaytirish, ishlab chiqarishni iste'molchi talablariga bo'ysundirish, mo'l-ko'lchilik orqali aholi farovonligiga erishish, mamlakatda erkin tadbirkorlik muhitini yaratish orqali xalqimizga azaldan xos bo'lgan mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tejamkorlik, vaqtning qadr-qiyamatiga yetish kabi xislatlarni yana qaytadan shakllantirishdan iborat. Yana bir narsani aytish kerakki, dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ishlatilib kelinayotgan baynalmilal terminlarning o'zbek tiliga ham o'z holicha o'zlashtirilishidir. Bu o'rinda shuni ta'kidlamoq zarurki, yangidan kirib kelayotgan terminlarning hammasiga ham o'zbekcha muqobilini topish qiyin. Shuning uchun ularning asosiy qismi dunyoning ko'pchilik mamlakatlari tillarida bir shaklda o'z asl holicha ishlatiladi va bu qo'llanish dunyo bizneschilari axborot almashinuvi uchun qulay.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch. "Ma'naviyat". T., 2010.
2. Karimov I. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., 2011.
3. Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. -T. O'qituvchi. 1979. 6-B.
4. Asqarova M, Yunusov R, Yo'ldoshev M, Muhammedova D. O'zbek tili praktikumi . Toshkent. 2006.
5. Aliqulov T. Metonimiya va polisemiya. Toshkent, 1965.
6. Eshonqulov B. Arabcha lug'aviy o'zlashmalarning omonimiyaga munosabati. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali. Toshkent. 1999/3.
7. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2010.
8. Mirtojdiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. Toshkent, 2010.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild. T., 2006-2008.
10. Abdullayev Y. Bozor iqtisodiyoti asoslari -T.: "Mehnat", 1997.
11. Sharifxo'jayev M., O'lmasov A. Iqtisodiyot nazariyasi. -T.: "Mehnat", 1995.
12. Raxmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. -T.: 2000.
13. Suvonova R. So'z o'zlashtirish va metonimiya. "Ozbek tili va adabiyoti" jurnali. Toshkent. 2006/6
14. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1992.
15. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T., 2006.
16. Xo'jayev A., Nurmonov A., Zaynobotdinov S. va boshq. Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'ati. -T.: "Sard", 2001.
17. Mahmudov N., Mahkamov N., Madvaliyev A. O'zbek tilida ish yuritish. -T.: Fan, 2001.

18. Norchayev A.N ., Qutulmurotov F. Xalqaro bozorda milliy turizm. O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 2001. №1-2.

19. Shomaqsudov A, Rasulov I, Qo`ng`urov R, Rustamov H. O`zbek tili stilistikasi. Toshkent. 1983.

20. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o`zbek tili. T., 2006.

21. O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T., O`zbekiston milliy ensiklopediyasi. 6-tom. 308-B.

22. Onikov L.A., Shishlin N.V. Qisqacha siyosiy lug`at. –T. O`zbekiston. 1983. 6-B.

23. M.Yo`ldoshevning “Badiiy matnning lisoniy tahlili” Alisher navoiy nomidagi O`zbekiston milliy kutubxonasi nashiryoti T.: 2010/112 b

Elektron resurslar:

www.gov.uz

www.stat.uz

www.ziyonet.uz

www.tilvaadabiyot.uz

<http://www.gldv.org/cms/gldv.php>

<http://lexikon.anaman.de/lexikon.htm>